

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LLIM
VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

XODJAEV BEGZOD

**PEDAGOGIKA FANLARINI O'QITISH METODIKASI
(METODIK QO'LLANMA,)**

TOSHKENT – 2011

Annotatsiya

Mazkur metodik qo'llanmada pedagogik fanlarni o'qitish jarayonining tuzilishi, mazmuni, shakl, metod va vositalari yoritib berilgan. Bundan tashqari qo'llanmada zamonaviy yondashuvlarni hisobga olgan holda muallif pedagogik fanlarni o'qitishda innovatsion va axborot texnologiyalardan foydalanish yo'llarini ham ko'rsatib bergan.

Taqrizchilar: pedagogika fanlari doktori N.M.Əgamberdieva,
pedagogika fanlari doktori Sh.Q.Mardonov

1-mavzu. «Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi» fanining predmeti, maqsad va vazifalari.

Reja:

1. O'quv fani metodikasi tushunchasi.
2. Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasining predmeti, maqsad va vazifalari.
3. Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi.

Adabiyotlar:

1. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori – T.: SHarq, 1997.
2. Общая педагогика. // Под.ред. В.А.Сластенина. – М.: Владос, 2003.
3. Педагогический энциклопедический словарь – М.: Большая Российская энциклопедия, 2002.
4. Савин Н.В. Методика преподавания педагогики – М.: Просвещение, 1987.

1. Metodika – bu xususiy didaktika, ya'ni biror bir fanni o'qitish nazariyasi. O'zaro ta'sir etishning turli shakllarini o'rganish asosida bi-ror fanni o'qitish va o'rganish yo'llarini o'quv fani metodikasi ishlab chiqardi va ta'lim oluvchilarga ta'sir etishning aniq tizimini o'qituvchilarga taklif etadi. Bu tizimlar DTS, o'quv dasturi va darsliklarda ochib beriluvchi ta'lim mazmunida o'z aksini topadi hamda ta'lim metodlari, shakllari va vositalari orqali amalga oshadi. O'quv fani metodikasi didaktika bilan mustahkam bog'langan va uning umumiy qoidalariga tayanadi. Tarbiya tamoyillariga asoslanib esa, metodika o'quv fani maqsadi, uning ta'lim oluvchi shaxsini rivojlanishidagi ahamiyatini ochib beradi.

Pedagog olim T.A. Ilinaning fikricha, didaktika turli ta'lim muassalarida xilma-xil o'quv fanlarini amalga oshiriladigan o'quv jarayonining umumiy qonuniyatlarini aks ettiradi. Tabiiyki, har bir o'quv fani o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlariga ega, o'zining alohida metodlari va ta'limni tashkil etish shakllarini talab etadi. Mazkur masalalar bilan xususiy metodika, yoki alohida o'quv fanlarini o'qitish metodikasi (tarix, ma-tematika, pedagogika, psixologiya va boshqalar) shugullanadi.¹

2. Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi – bu nazariya va amaliyot-ning umumlashgan ko'rinishidir. U o'qituvchi va ta'lim oluvchilar birgalikdagi faoliyati, ta'lim mazmuni, shakl va metodlari birligi sifatida pedagogik fanlarni o'qitish jarayonini tadqiq etadi. Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi bo'lajak o'qituvchilarni yuqori kasbiy tayyor-garligini ta'minlash uchun butun e'tiborini ta'limning qonuniyatlari va tamoyillari, uning shakl va metodlarini asoslashga qaratadi. Bundan tash-qari pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi doimiy ravishda

¹Ильина Т.А. Педагогика - М.: Просвещение, 1984, ст.202.

pedagogika fanlarni o'qitishning qonuniyatlarini ochish va asoslab berishga hamda uning asosida ta'lim jarayonini boshqarish yo'llarini izlab topadi. Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi **predmetini** bunday tushunishdan kelib chiqib aytish mumkinki, u boshqa fanlarni o'qitish metodikasidan farqli ravishda ikki – umumiy va xususiy qismdan tashkil topadi.

Umumiy qismda pedagogik fanlarni o'qitishning metodologik va umumnazariy masalalariga e'tibor qaratiladi. Ular pedagogika kollejlari-rida pedagogik fanlarni o'qitishda bir xil darajadagi ahamiyatga ega. Ik-kinchi bo'limda pedagogika kollejlari-rida pedagogik fanlarni o'qitish jara-yoni, mazmuni, shakl va metodlariga alohida urfu beriladi.

Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi o'quv fani sifatida «Ta'lim to'rtisidagi»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida tub-dan yangilandi. Ana shu asosdan kelib chiqib, pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi fanining **vazifalari**ga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. O'qitish jarayonini samarali tashkil etish natijasida har tomonlama rivojlangan, yuqori intellektual salohiyatga ega shaxsni shakllantirish.

2. Har tomonlama rivojlangan, yuqori intellektual salohiyatga ega shaxsni shakllantirishning markazida o'qituvchi turadi. SHuning uchun bo'la-jak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish – metodika-ning muhim vazifasidir.

3. Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi fani bo'lajak o'qituvchi-larga o'quvchilarning fan asoslari bo'yicha bilimlarini yangi sifat daraja-siga, kasbga yo'naltira olishlariga, foyaviy-siyosiy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyani yuksak darajasiga erishish yo'llarini ko'rsatib berishi zarur.

4. Talabalarni ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish uchun pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi fani pedagogni ta'limning shakl, metod va vositalarini tanlab olish va tizimlashtirishga o'rgatadi.

5. Pedagogik ta'lim muassasalari bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik yo'nalganlikni shakllantirish uchun katta ijobiy tajribaga ega. Bunda pedagogik fanlarni o'ziga xos o'rni bor. To'plangan tajribalarni jamlash, tizimlashtirish, kelajakda qo'llash uchun tavsiyalar berish ham pedagogik fanlarni o'qitishning vazifalaridan biridir.

3. Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi pedagogik ta'sir etishning samarali tizimini ishlab chiqish uchun pedagogik psixologiya, oliy nerv faoliyati fiziologiyasi, mantiq, kibernetika(ayniqsa, dasturlashgan ta'lim elementlarini ishlab chiqishda) ma'lumotlariga tayanadi.

1997 yildan boshlab mamlakatimizda ta'lim sohasini tubdan isloh qilish pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi fani oldiga o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish, o'quv faoliyatida o'quvchilarning o'quv faoliyati mustaqilligi va ijodiy faolligini shakllantirish yo'llarini aniqlash, tajriba-sinov ishlarining rolini oshirish kabi masalalarni ko'ndalang qo'ydi. Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi fanini oldida turgan dolzarb muammolardan biri ma'lumotlarni o'quvchilarning ustiga «yuk» bo'lib tushishini bartaraf etish. Ta'limning yangi

texnologiyalari-ning rivojlanishi, taʼlimni kompyuterlashtirishni amalga oshirish ЭHM qoʻllash bilan boʻliq oʻquv dasturlari, dasturlash tillarini ishlab chiqish-ni, pedagogik fanlarni oʻqitishda kompyuterning oʻrni va oʻqituvchining rolini aniqlashni shart qilib qoʻydi.

2-mavzu. Pedagogik fanlar va ularning o'ziga xosliklari

Reja:

1. Pedagogik fanlar tizimi.
2. Pedagogika kollejlarda o'qitiladigan pedagogik fanlar va ularning o'ziga xosliklari.

Adabiyotlar:

1. Titov V.A. Obщaya pedagogika / Konspekt lekцiy – M.: Prior-izdat, 2003. st.14-19.
2. Podlasiy I.P. Pedagogika – M.: Vldos, 2003. Kn.1. st. 37-40.
3. Obщaya pedagogika / Pod. red. V.A. Slastenina – M.: Vldos, 2003. CH.2. st.32-33.
4. Mavlonova R. va boshq. Pedagogika. – T.: O'qituvchi, 2001.
5. Hoshimov K. Kuni uzaytirilgan guruhlarda taъlim-tarbiya naza-riyasi va metodikasi – T.: SHarq, 2007.

1. Uzoq vaqt davomida pedagogikaning shakllanishi va rivojlanishi natijasida **pedagogik fanlar tizimi** shakllandi:

- pedagogika tarixi;
- umumiy pedagogika;
- maktabgacha tarbiya pedagogikasi;
- maktab pedagogikasi;
- o'rta maxsus, kasb hunar taъlim pedagogikasi;
- oliy taъlim pedagogikasi;
- maxsus pedagogika
- ishlab chiqarish pedagogikasi;
- qiyosiy pedagogika;
- valeologiya;
- ijtimoiy pedagogika;
- harbiy pedagogika;
- etnopedagogika;
- taъlim falsafasi.

Pedagogika tarixi – insoniyat jamiyati rivojining turli bosqichlarida o'sib kelayotgan avlodni o'qitish va tarbiyalash nazariyasi va amaliyoti-ning holati va rivojlanishini o'rganadigan pedagogik fanlar sohasi.

Umumiy pedagogika – barcha turdagi taъlim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonining umumiy asoslarini ishlab chiqadigan, inson tarbiyasi qonuniyatlarini o'rganadigan bazaviy ilmiy fan.

Maktabgacha tarbiya pedagogikasi – maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsi shakllanishi, rivojlanishi qonuniyatlari haqidagi fan.

Maktab pedagogikasi o'zida turli o'quv muassasalari(boshlanfich va umumiy o'rta maktab, лицey, gimnaziya va boshqalar)dagi o'quvchilarni o'qi-tish

va tarbiyalash qonuniyatlari haqida boy ilmiy maълumotlarni to'plagan peda-gogik fanlarning ەng qadimiy sohalaridan birini aks ەttiradi.

O'rta maxsus, kasb hunar taълim pedagogikasi shakllanish bosqichida davom ەtmoqda. U o'rta maxsus kasb-hunar taълimi muassasalaridagi kasbiy taълim muammolari hamda taълim mazmuni va shakllarini o'rganadi.

Oliy taълim pedagogikasi oliy o'quv yurtlaridagi o'quv-tarbiya jara-yoni qonuniyatlarini o'rganadi.

Ishlab chiqarish pedagogikasi ishchi xodimlarni o'qitish, ularni ish-lab chiqarishning yangi vositalariga qayta yo'naltirish, ularning malakasi-ni oshirish, yangi kasblarga o'rgatish qonuniyatlarini o'rganadi.

Maxsus pedagogika shaxsi va rivojlanishida nuqsoni bor bo'lgan bola-larni o'qitish va tarbiyalash bilan shuълullanadi. Asosiy uch sohasi mavjud:

- surdopedagogika – ەshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o'kitish va tarbiyalash pedagogikasi;
- tiflopedagogika – ko'zi ojiz bolalarni o'qitish va tarbiyalash qonuniyatlarini o'rganuvchi;
- oligofrenopedagogika – aqli zaif bolalarni o'kitish va tarbiyalash jarayonini tadqiq ەtadi.

Valeologiya (lotinchadan – sof-salomat bo'lish haqidagi fan) – bu inson salomatligini shakllantirish, saqlash va mustahkamlash mexanizmlari ham-da qonuniyatlari haqida bilimlar sohasi.

Ijtimoiy pedagogika – ijtimoiy muhitning shaxsni shakllanti-rishga va ijtimoiy tarbiya muammolariga taъsiri qonuniyatlarini o'rganuv-chi fan. Alohida shaxs va guruhni tarbiyalash va o'qitish nazariya va amaliyoti.

Harbiy pedagogika – harbiy o'quv yurtlaridagi barcha toifadagi har-biy xizmatchilarni o'kitish va tarbiyalash tamoyillari, shakl va metodlarini ishlab chiqadi va qonuniyatlarini ochib beruvchi pedagogika sohasi.

Эtnopedagogika – bolalarni o'kitish va tarbiyalashdagi ەtnik guruh-larning amaliy tajribasi haqidagi fan.

Qiyosiy pedagogika – turli mamlakatlarda pedagogik nazariya va amaliyotning rivojlanish holati, tendençiyasi va qonuniyatlarini qiyosiy tarzda o'rganuvchi pedagogik fanlar sohasi.

Taълim falsafasi – taълim va tarbiyaning falsafiy asoslarini o'rga-nuvchi pedagogik fan sohasi.

2. Pedagogika kollejlarda asosan umumkasbiy fanlar blokiga tegish-li «**Pedagogika**» va maxsus fanlar blokiga tegishli «**Kuni uzaytirilgan guruhda taълim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**» fani o'kitiladi.

YUqorida taъkidlaganimizdek, «Pedagogika» fani II blok umumkasbiy fanlar sirasiga kiradi. Umumkasbiy fanlar uchun ajratilgan soatning ەng katta qismini, yaъni **278 soat**ini o'zida aks ەttiradi. SHundan auditoriya so-atlari 196 soatni tashkil ەtib, **130 soat** nazariy, **66 soat** amaliy mashълulot-lar uchun ajratilgan. O'quvchilar fandan bajaradigan mustaqil ishlar haj-mi **82 soat**dan iborat. Fan pedagogika kollejlarda **uch kurs**, yaъni **olti semestr** davomida o'kitiladi. SHundan:

- I semestrda 20 hafta davomida 2 soatdan 40 soat – $20 \times 2 = 40$;
- II semestrda 19 hafta davomida 2 soatdan 38 soat – $19 \times 2 = 38$;
- III semestrda 20 hafta davomida 2 soatdan 40 soat – $20 \times 2 = 40$;
- IV semestrda 16 hafta davomida 2 soatdan 32 soat – $16 \times 2 = 32$;
- V semestrda 20 hafta davomida 1 soatdan 20 soat – $20 \times 1 = 20$;
- VI semestrda 13 hafta davomida 2 soatdan 26 soat – $13 \times 2 = 26$;

Fanning o'quv dasturida ko'rsatilishicha, fan **to'rtta katta bo'lim**: «Pedagogikaning umumiy asoslari», «Ta'lim nazariyasi», «Tarbiya nazariyasi», «O'zbekistonda maktab va ta'lim tizimini boshqarish»ni hamda **yigirma ettita bobni** o'z ichiga qamrab oladi.

«Pedagogikaning umumiy asoslari» bo'limi «O'qituvchilik kasbi-ning ijtimoiy mohiyati», «Pedagogika fani va metodlari», «O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi», «SHaxsning o'sishi, shakllanishi va tarbiya-si», «Barkamol shaxs tarbiyasining maqsad va vazifalari» boblaridan ibo-rat. Bo'lim uchun ajratilgan 40 soatning 29 soati nazariy va 11 soati amaliy mashfulot uchun mo'ljallangan. Amaliy mashfulot ishlari mazmuni quyidagilardan iborat:

1. «Mustaqil O'zbekistonga qanday o'qituvchilar kerak?» Ifor tajri-bali o'qituvchilar bilan uchrashuv. (2 soat)
2. «Tarbiyaning tarixiy, umuminsoniy va milliy xususiyatlari» mav-zusida seminar. (2 soat)
3. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'rtisida»gi Qonuniga ko'-ra umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining asoslanishi. (1 soat)
4. «O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'rtisida»gi Qonuni mo-hiyati» mavzusida seminar. (2 soat)
5. O'quvchi shaxsiga pedagogik-psixologik tavsifnoma tuzish tartibi. (2 soat)
6. A. Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida va hadislar-dan axloq tarbiyasiga oid mavzularni tahlil qilish. Amaliy ish. (2 soat)

«Ta'lim nazariyasi» bo'limi «Ta'lim nazariyasining maqsad va vazifalari», «Ta'lim mohiyati», «Ta'lim jarayoni tamoyillari», «Ta'lim ja-rayonining mazmuni», «Ta'lim jarayonining metodlari», «Ta'limni tashkil etish shakllari», «O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini hisobga olish va baholash» boblarini o'zida aks ettiradi. Bo'lim uchun ajratilgan 45 soatning 27 soati nazariy va 18 soati amaliy mashfulot uchun mo'ljallangan. Amaliy mashfulot ishlari mazmuni quyidagilardan iborat:

1. Boshlan'ich sinflarda ta'lim jarayonini kuzatish va tahlil qilish (2 soat).
2. Amaliy ish. O'quv rejasi, dasturi va darsliklar tahlili (2 soat).
3. Kitob va darsliklar ustida ishlash metodi (1 soat).
4. Didaktik o'yin ta'lim metodi sifatida (1 soat).
5. Yangi bilimlarni beruvchi va dastlabki mustahkamlovchi dars (1 so-at).
6. Ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi-mustahkamlovchi dars (1 soat).
7. Bilimlarni umumlashtiruvchi-takrorlovchi va nazorat darslari (2 soat).
8. Aralash dars (1 soat).
9. Ekskursiya darsi (1 soat).

10. O'quv ustaxonasi va maktab tajriba er maydonida amaliy mashfulot (1 soat).

11. Hozirgi zamon darslari va ularga qo'yiladigan talablar. Umumlashtiruvchi-konferençiya darsi (2 soat).

12. Bilimlarni baholash shartlari va ularga qo'yiladigan talablar. Baholash tizimi, baho meъyori (1 soat).

13. Maktabda bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish va baholash tizimini o'rganish (2 soat).

«Tarbiya nazariyasi» bo'limi «Tarbiya jarayoni mohiyati», «Tarbiya metod-lari», «O'quvchilar jamoasi va uning o'quvchi shaxsiga taъsiri», «O'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish», «Ijtimoiy-siyosiy tarbiya va o'quvchilarning faolligini shakllantirish», «Barkamol shaxsning maъnaviy-axloqiy tarbiyasi», «Barkamol shaxsning estetik tar-biyasi», «Barkamol shaxsning mehnat tarbiyasi», «Barkamol shaxsning jismo-niy tarbiyasi», «Barkamol shaxsга ekologik tarbiya berish», «barkamol shaxs-ga iqtisodiy tarbiya berish», «Tarbiya tarkibida bolalar va yoshlar tashkilot-lari», «SHaxsning kamol topish tizimida sinfdan va darsdan tashqari ish-lar», «Oila, maktab va jamoatchilikda bola tarbiyasi» boblarini qamrab oladi. Bo'lim uchun ajratilgan 75 soatning 54 soati nazariy va 21 soati ama-liy mashfulot uchun mo'ljallangan. Amaliy mashfulot ishlari mazmuni quyi-dagilardan iborat:

1. Amaliy ish. Tarbiya haqida allomalarning fikrlari (2 soat).

2. Tarbiyaviy mashfulot uchun reja, ishlanma tuzish (2 soat).

3. Jamoada barobar taъsir ko'rsatish tizimini o'rganish (1 soat).

4. O'quvchilarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish vositalari (1 soat).

5. O'quvchilarni vatanparvarlik va milliy iftixor ruhida tarbiyalash (1 soat).

6. Amaliy ish. Maъnaviy-axloqiy mavzuda mashfulot reja ishlanma-sini tuzish (2 soat).

7. Amaliy ish. «Muomala go'zalligi» mavzusida o'tkaziladigan suhbat reja ishlanmasini tuzish (2 soat).

8. Amaliy ish. YAkshanbalik o'tkazish rejasi (2 soat).

9. Amaliy ish. Harakatli o'yin ishlanmasini tuzish (1soat).

10. Iqtidorli bolalar bilan ishlash (1 soat).

11. Amaliy ish. «Mohir qo'llar» to'garagining ish rejasini tuzi shva tahlil etish (2 soat).

12. Oilada bola hayotini oqilona tashkil etish va oilada bolaning axloqiy tarbiyasi (1 soat).

13. Oilada bolani jismoniy soъlom va yuksak did-farosatli qilib tarbiyalash (1 soat).

14. Amaliy ish. Ota-onalar yifilishi qarorini tuzish (2 soat).

«O'zbekistonda maktab va taъlim tizimini boshqarish» bo'limi yaxlit xarakterga ega bo'lib, 8 soatdan nazariy va amaliy mashfulotni qamrab oladi. Amaliy mashfulot ishlari mazmuni quyidagilardan iborat:

1. Pedagogik Kengash va uning ish mazmuni. Pedagogik xodimlar bilan ishlash xususiyatlari. (1 soat).

2. Boshlanғich sinf o'qituvchilarining metod birlashma rejalarini o'rganish, tahlil etish(2 soat).
3. O'quv yili davomida o'tilganlarini takrorlash (3 soat).
4. YAkuniy nazorat (2 soat).

3-маъруза. Pedagogik fanlarni o'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida

Reja:

1. Pedagogik fanlarni o'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida.
2. Pedagogik fanlarni o'qitish funkцiyalari.

3. O'qituvchi va talabalarning ta'lim jarayonidagi faoliyatlari. O'qituvchi faoliyatining vazifasi va tuzilishi.

Adabiyotlar:

1. Kaldibekova A.S., Xodjaev B.X. O'quvchilarning bilish faolligini oshirish yo'llari. T.: TDPU, 2006, 12-27 betlar.
2. Pedagogika. /A.Q.Munavvarov tahriri ostida. T.: O'qituvchi, 1994, 64-68 betlar.
3. Общaya pedagogika. / Pod. red. V.A.Slastenin: V 2 ch – M. : “Vlados”, 2003 ch.1. st. 125-144.
4. Toxtaxodjaeva M. Va b., Pedagogika. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2008.

1. Pedagogik fanlarni o'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida. Ta'lim tushunchasi va mohiyati. Ta'lim tizimli bilim olishning eng muhim va ishonchli usulidir. Ta'limga ikki tomonlama aloqa (ta'lim olish va ta'lim berish), shaxsni har tomonlama rivojlantirish va boshqa xususiyatlar xosdir. Ta'lim o'qituvchi tomonidan boshqariluvchi o'ziga xos anglash jarayonidir. O'qituvchining yo'naltiruvchi sifatidagi roli talabalarning aqliy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalarni to'liq o'zlashtira olishlarida ko'rinadi.

Ta'lim o'qituvchining talabalar bilan muloqoti jarayoni ham sanaladi. U talabalarga o'quv materialini mazmunini tushuntirib beradi, savol va topshiriqlar beradi, ularning faoliyatini nazorat qiladi, xato va kamchiliklarini aniqlaydi, yo'l qo'yilgan xatolarni to'g'rilaydi, qanday ishlash lozimligini qayta ko'rsatadi. Har qanday ta'lim o'zida o'qituvchi va talabaning faoliyati, ya'ni, o'qituvchining o'rgatish hamda talabaning o'rganishga yo'naltirilgan faoliyati, boshqachai aytganda to'g'ridan to'g'ri, bevosita va nisbiy munosabat aks etadi.

Pedagogika fanlarini o'qitish jarayonida o'qituvchi va talaba o'rtasida o'zaro muloqot yuzaga keladi. “Muloqot” tushunchasi “ta'lim” tushunchasidan ko'ra keng ma'noga ega.

Ta'lim talabalarga nazariy bilimlarni berish asosida ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish, ularda amaliy ko'nikma va malakalar, shuningdek, dunyoqarashni shakllantirishga yo'naltirilgan jarayondir.

Ta'lim va pedagogik fanlarni o'qitish jarayoni (didaktik jarayon) sinonim tushunchalar emas. Jarayon bu yaxlit pedagogik hodisa, pedagogik faoliyatning tarkibiy qismi sifatida ta'lim tizimining muayyan holatini o'zgartirish hisoblanadi. Jarayon mohiyatini V.P.Bespal'ko tomonidan taklif etilgan quyidagi formula asosida to'laqonli anglash mumkin:

$$DJ = M + Tf + B$$

Bu erda; DJ – didaktik jarayon;

M – talabalarning o'qish (ta'lim olish) motivatsiyasi;


Tf – talabalarning o'zlashtirish faoliyati;

B – talabalarning bilish faoliyatlarini boshqarish.

Pedagogika fanlarini o'qitish jarayonining yaxlit tizim sifatidagi tavsifi. Pedagogik fanlarini o'qitish jarayonining “yaxlitligi” “tizimliliği” va “majmuaviyligi”ni bir xilda talqin etish mumkin emas. Biroq, pedagogik fanlarni o'qitish jarayonining yaxlitligi uning tizimliliği bilan uzviy bo'liq.

Tizim (mustaqil tushuncha sifatida) o'zaro bo'rlangan ko'plab elementlar (tarkibiy qismlar) o'rtasidagi mustahkam birlik va o'zaro yaxlitlikdir. Demak, pedagogik fanlarni o'qitish yaxlit tizim sifatida ko'plab o'zaro bo'liq quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: ta'lim maqsadi, o'quv axborotlari, o'qituvchi va talabalarning ta'limiy faoliyatlari, uning shakllari, pedagogik muloqot vositalari, shuningdek, ta'lim jarayonini boshqarish usullari.

Pedagogik fanlarini o'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida quyi-dagicha namoyon bo'ladi (1-chizma):



1-chizma. Pedagogik fanlarini o'qitish jarayoni

Barcha tarkibiy qismlarning o'zaro birligi va yaxlitligi sifatida namoyon bo'luvchi pedagogik fanlarni o'qitish jarayonining negizini o'qituvchi va talabalarning ta'limiy faoliyatlari tashkil etadi.

2. Pedagogik fanlarini o'qitish funktsiyalari. “Funktsiya” tushunchasi “mutaxassislik fanlarini o'qitish vazifalari” tushunchasiga yaqindir. Mutaxassislik fanlarini o'qitish funktsiyasi mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayoni mohiyatini ifoda etadi, vazifasi esa mutaxassislik fanlarini o'qitishning komponentlaridan biri hisoblanadi.

Metodika mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonining quyidagi uchta funktsiyasini ajratib ko'rsatadi: ta'lim berish, rivojlantirish va tarbiyalash.

Ta'lim berish funktsiyasi mutaxassislik fanlarni o'qitish jarayonining talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Mutaxassislik fanlarini o'qitish natijasi sifatida bilimlarining to'raligi, chuqurligi, tizimliliği,

anglanganligi, mustahkamligi va amaliy xususiyat kasb o'tishi muhimdir. Bu kabi holatlar mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonining metodik jihatdan to'fri tashkil etilganligini ifodalaydi.

Mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida talabalarda ular tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida hosil qilingan amaliy ko'nikma va malakalarning shakllanishi ham alohida ahamiyatga ega.

Ko'nikma – olingan bilimlarga asoslanib qo'yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig'indisi.

Malaka – ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi. Umumiy ko'nikma va malakalarga o'zaki va yozma nutqni bilish, axborot materiallaridan foydalana olish, o'qish, manbalar bilan ishlash, referat yozish, mustaqil ishini tashkil o'tish kabilar kiradi.

Pedagogika fanlarni o'qitishning rivojlantiruvchi funktsiyasi mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida, bilimlarni o'zlashtirish jarayonida talabaning rivojlanishi sodir bo'lishini ko'rsatadi. Rivojlanish quyidagi yo'nalishlarda sodir bo'ladi: nutqi rivojlanishi, fikrlashi, shaxsning sensorli va harakatlanish sohalari, emotional-irodaviy va ehtiyoj-sababli sohalari rivojlanadi. To'fri tashkil etilgan ta'lim shaxsni har doim rivojlantiradi, lekin o'qituvchi va talabaning shaxsiy har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan maxsus o'zaro munosabatlarida rivojlantirish funktsiyasi yanada samaraliroqdir.

Ta'limning talaba shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilganligi "rivojlantiruvchi ta'lim" tushunchasi bilan ifoladanadi. XX asr 60-yillaridan boshlab rivojlantiruvchi ta'limni tashkil o'tishga nisbatan turli yondoshuvlar yuzaga keldi.

Bularning hammasi fanlarni o'qitishni tashkil o'tish faqat bilimlarni shakllantirishga emas, talabani har tomonlama rivojlantirish (birinchi navbatda, aqliy rivojlantirish, aqliy faoliyat usullari, analiz qilish, taqqoslash, turlarga ajratish va boshqalarni kuzatish, xulosa chiqarish, ob'ektlarning muhim belgilarini ajrata bilish, faoliyat maqsadi va usullarini aniqlashni bilishga o'rgatish, uning natijalarini tekshirishni bilish malakasini rivojlantirish)ga xizmat qilishini anglatadi.

Pedagogika fanlarini o'qitish jarayoni tarbiyalovchi xususiyatga ham ega. Tarbiya va ta'lim o'rtasidagi bog'liqlik ob'ektiv va qonuniy hisoblanadi. Biroq shaxsni ta'lim jarayonida tarbiyalash tashqi omillar (oilalar, mikromuhit va boshqalar)ning ta'siri tufayli qiyin kechadi.

Tarbiyalash funktsiyasi. Tarbiyalash funktsiyasi mutaxassislik fanlarni o'qitish mazmuni, shakli va metodlarining mohiyati bilan belgilanadi va o'qituvchi hamda talabalar o'rtasidagi munosabatlarni tashkil o'tish jarayonida etakchi o'rin tutadi.

Pedagogika fanlarini o'qitish jarayonida shaxsning ma'naviy-axloqiy va estetik tasavvurlari, xulq-atvori va dunyoqarashi shakllantiriladi.

Pedagogika fanlarini o'qitishning tarbiyalovchilik xususiyati, eng avvalo, pedagogik fanlar mazmunida aks etadi.

Pedagogika fanlarini o'qitish jarayonida tarbiyaning ikkinchi omili o'qituvchi va talabalarning munosabatlari, sinfdagi psixologik muhit, o'qish

jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari, talabalarning idrok etish faoliyatlariga o'qituvchining rahbarligi hisoblanadi. Zamonaviy pedagogika o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi munosabatning eng qulay usuli sifatida demokratik usulini e'tirof etadi. Bu usul pedagogik fanlarni o'qitish jarayonida talabalar shaxsini hurmat qilish, ularning xohish-istaklari, qiziqishlarini inobatga olinishini anglatadi.

3. O'qituvchi va talabalarning ta'lim jarayonidagi faoliyatlari. O'qituvchi faoliyatining vazifasi va tuzilishi. Pedagogika fanlarini o'qitish jarayonida talabaning faoliyati o'qituvchi rahbarligi ostida kechadi. O'qituvchi faoliyatining vazifasi talabalarning ijtimoiy borliqni ongli va faol idrok etishga yo'naltirilgan faoliyatlarini boshqarishdan iboratdir.

Pedagogika fanlarini o'qitish jarayonini boshqarish quyidagi bosqichlardan iborat:

- 1) rejalashtirish;
- 2) tashkil etish;
- 3) boshqarish (ra'batlantirish);
- 4) nazorat;
- 5) natijalarni baholash va tahlil qilish.

O'qituvchi faoliyatini rejalashtirish bosqichi kalendar-tematik yoki darslar rejalarini tuzish bilan yakunlanadi. Rejalar, reja-konspektlar yoki konspektlarni tuzish uchun uzoq, jiddiy ishlash kerak bo'ladi. O'qituvchi talabalarning tayyorliklari darajasi, ularning o'quv imkoniyatlari, moddiy baza holati, shaxsiy (kasbiy) imkoniyatlarini o'rganib chiqishi, o'quv materialini mazmunini tanlab olishi, mash'ulot olib borish shakli va metodini o'ylab chiqishi kerak bo'ladi.

Talabalar faoliyatini tashkil etish talabalar oldiga o'quv masalalarini qo'yishni va uni bajarish uchun imkoniyatlar yaratishdan iborat bo'ladi.

Pedagogika fanlarini o'qitish jarayonida o'quvchilarning faoliyati. Bilim olish faoliyatning o'ziga xos ko'rinishi sifatida muayyan tuzilish, rivojlanish va faoliyat qonuniyatlariga ega. **Bilim olish** borliqni idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni hisoblanadi. Bilim olishning muhim komponenti motiv, ya'ni, ta'limiy xarakterdagi harakat yoki faoliyatni tashkil etishga nisbatan ra'batni his etish, ehtiyojning yuzaga kelishidir.

O'qishning keyingi komponenti **o'quv harakatlari** (operatsiyalari) sanalaib, ular anglangan maqsadga binoan amalga oshiradi. O'quv harakatlari o'quv jarayonini tashkil etishning barcha bosqichlarida namoyon bo'ladi. Harakatlar tashqi (kuzatiladigan) va ichki (kuzatilmaydigan) ko'rinishda bo'lishi mumkin. Tashqi o'quv harakatlariga predmetli harakatlar (yozish, rasm chizish, tajribalar o'tkazish); perzeptiv harakatlar (tinglash, fikrlash, kuzatish, sezish) hamda nutqdan foydalanish kiradi.

Ichki (mnemonik, yunonchadan «mnemonikon» - eslab qolish madaniyati) harakatlarga materialni eslab qolish, uni tartibga solish va tashkil etish, shuningdek, tasavvur va fikrlash harakatlari (intellektual) kiradi.

Har qanday bilimni o'zlashtirishda talabalardan idrok etish madaniyatiga ega bo'lish va o'quv materialini anglab etish talab etadi. Pedagogik jarayonda talabalar tomonidan ilmiy bilimlarning ma'nosini etarli darajada tushunmay, faqat tovushlar birligi sifatida qabul qilinishi va yodlab olinishi xavflidir.

Talabalarni ilmiy bilimlarni ularning mohiyatini to'la tushungan holda o'zlashtirish shartlari bilan tanishtirib, ularga o'zini o'zi nazorat qilishning mohiyati va ahamiyatini tushuntirish maqsadga muvofiqdir. O'zini o'zi nazorat qilishda talabalar ular qo'llayotgan aqliy mehnat vositalarining samaradorligi, shuningdek, o'z mehnati natijalarini baholashi kerak.

Natijalarni baholash, nazorat qilish va tahlil etish o'quv harakatlarining ajralmas qismlari hisoblanadi. Ta'lim jarayonida talaba tomonidan o'zini nazorat qilish, o'zini baholash va o'zini analiz qilishni amalga oshirish o'qituvchining shunga o'xshash o'rgatuvchi harakatlarini kuzatish asosida shakllanadi. Bu harakatlarni shakllantirish talabalarni o'z tengdoshlari faoliyatini kuzatishga jalb etish, o'zaro nazoratni tashkil etish, o'rnatilgan mezonlar asosida o'z faoliyati natijalarini o'zaro baholash va tahlil qilishga yordam beradi.

Bilimlarni o'zlashtirish jarayonining tuzilishi. Talabalar o'quv idrok etish faoliyatlarini boshqarishga o'rganib olish uchun bilimlarni o'zlashtirish jarayoni tuzilishini yaxshi tasavvur etish, talabalar tomonidan bilimlarning e'gallash bosqichlarini bilish zarur: idrok etish, o'quv materialini anglab etish, mustahkamlash, amaliy faoliyatida bilimlarini qo'llash.


Birinchi bosqich idrok etish hisoblanadi. Psixologiyadan ma'lumki, idrok etish aniq maqsadga yo'naltirilgan anglash jarayoni bo'lib, u tanlash xususiyatiga ega. SHuning uchun birinchi navbatda talabalarga mavzuni, ya'ni, ularning nimani o'rganishlari (masalani qo'yish)ni tushuntirib berish kerak. SHu asosida o'quv materialini bilan dastlabki tanishish amalga oshiriladi. U haqiqiy mavjud yoki hayoliy predmet, hodisa, vaziyatlarni kuzatish, mumkin bo'lgan tajribalarni o'tkazishdan iborat bo'ladi. Birinchi bosqich talaba qaysi hodisa va voqealarni, predmetlarni o'rganish haqida etarlicha tasavvurga ega bo'lganida va o'quv masalasini tushunib etganda yakunlanadi.

Ikkinchi bosqich – o'quv materialini anglab etish. U ma'lumotlarning nazariy jihatlarini ajratib olish va analiz qilishdan iborat. Bunda asosiy mazmunni topish, tushunchani ajratib olish, ularning belgilarini asoslab berish, tushuntirish materialini xususiyatini aniqlab olish, misollar va tushuntiruvchi dalillar to'plamini o'rganib chiqish kerak. Bu vaziyatda bilimlar o'rtasidagi tizimlilik muhim ahamiyatga ega. Unda talaba eng asosiy, ikkinchi darajali hamda qo'shimcha, tushuntiruvchi elementlarni ajratib ko'rsatsin. Talaba o'quv masalasini echish usulini tushunsa, bilimlar o'rtasidagi tizimni anglab etsa, ushbu bosqich yakunlangan sanaladi.

Uchinchi bosqich – eslab qolish va mustahkamlash. Bu bosqich o'zlashtirilgan bilimlarini uzoq vaqt davomida saqlab qolishdan iborat. Unda idrok etish faoliyati ko'proq mashqlar, mustaqil reproduktiv va ijodiy masalalar xususiyatiga ega bo'ladi. Nazariy material, tushuncha, qoida, isbotlar turli xil mashqlarda takrorlanadi. O'qituvchi talabalar topshiriqlarni tushunib bajarishlarini kuzatib borishi kerak. Ular matnlarni mexanik ko'chirib olishlari, topshiriqlarni

bajarishlari, qoida va tushunchalarni chuqur anglab etmay bajarishlari mumkin. Bosqich yakunida talabalar nazariy materiallarni biladilar va ulardan mashqlarni bajarish, masalani echish, teoremani isbotlashda foydalanishni biladilar. Ularda o'quv malakalari va ko'nikmalari shakllantirilgan bo'ladi.

To'rtinchi bosqich bilim, ko'nikma va malakalarni amaliy faoliyatda qo'llashdan iborat bo'ladi. Bilimlarini qo'llash o'rganilayotgan materialning mazmuni xususiyatiga qarab faoliyat turli shakllari va ko'rinishlarida amalga oshirilishi mumkin. Bu o'quv mashqlari, laboratoriya ishlari, tadqiqot topshiriqlari, maktab er maydonidagi ishlar bo'lishi mumkin. Bilimlarni e'gallab olish bosqichlari sxematik ko'rinishi quyidagichadir:



4. O'quvchilarning bilim o'zlashtirish darajalari. 1. Reproduktiv faoliyatda o'zlashtirilgan (HMA) uning algoritmlari va qoidalari faqat har xil ko'rinishlarda qayta ishlab chiqiladi (ta'limda aynan qayta gapirib berishdan tortib, o'xshash vaziyatlarda bir oz o'zgartirib aytishgacha), o'quv predmetida dastlab bilib olingan ma'lumotlarga talaba faoliyat davomida biror yangi axborot qo'shmaydi. Algoritmik harakatlar, ya'ni yaxshi tanish sharoitlarda va aniq tasvirlangan qoidalarga binoan harakat qilish reproduktiv faoliyat uchun xarakterlidir. Masalan, talaba umumiy ta'lim, ixtisoslik predmetlari bo'yicha o'quv qo'llanmalarida barcha masalalar (vazifalar)ni ilgari o'zlashtirilgan (bilingan) qoidalar va algoritmlarga binoan echadi, talabaning bunday faoliyati reproduktivlik doirasidagi harakatlardir.

2. Mahsuldor faoliyat jarayonida o'quvchi har doim o'quv predmetidan o'zlashtirib olinganiga nisbatan yangi harakat – (HMA) yaratadi, ya'ni o'quv qo'llanmasining mazmunidan farq qiladigan yangi axborotni yuzaga keltiradi. Yangi axborotni yaratish ham doimo izlanuvchanlik faoliyatida oldingi tajribaga tayanadi.

3. Reproduktiv va mahsuldor faoliyatlar o'zaro bo'langan bo'lib, bilim e'gallashdagi ikki bosqichdir. Talaba ham reproduktiv, ham mahsuldor faoliyatga

doir harakatni har bir masalani echish jarayonining elementi sifatida bajaradi. Psixologik-pedagogik fanlarda masala deganda maълum harakat yordamida bajarish mumkin bo'lgan maълum bir maqsad tushuniladi. SHunday qilib, maqsad vaziyat va harakat masalaning komponentlari hisoblanadi. Reproduktiv va mahsuldor faoliyatni qo'llash komponentlari masalalarda ko'rsatilgan varinatlarga borliq bo'ladi.

4. **Bilimlarni o'zlashtirishning 1-darajasi.** 1-daraja (A1). Agar masalada uning echishning maъsadi, vaziyati va harakati ko'rsatilgan bo'lsa, talabadan bu uchala komponent masalaning tuzilishidagi barcha komponentlarga mos kelishi haqida xulosa chiqarishgina talab etiladi, bu bilish faoliyati hisoblanadi. Talaba uni obъektlar, jarayonlar yoki harakatlar haqidagi ilgari o'zlashtirilgan axborotni qayta idrok qilgandagina bajara oladi. Bu tashqaridan algoritmik ko'rinishda berilgan algoritmik faoliyatdir.

5. **Bilimlarni o'zlashtirishning 2-darajasi.** 2-daraja (A II). Agar masala(vazifa)da maqsad va vaziyat berilgan bo'lsa, o'quvchidan uni echish uchun oldin o'zlashtirilgan (o'rganilgan) harakatni qo'llash talab etiladi, bu reproduktiv algoritmik harakat. Talaba uni – bu harakatni bajarishning oldin o'zlashtirilgan mo'ljal haqidagi axborotni mustaqil qayta tiklab va qo'llab bajaradi. Buni tipik masala deyiladi.

6. **Bilimlarni o'zlashtirishning 3-darajasi.** 3-daraja (AIII). Agar masala (vazifa)da maqsad berilgan bo'lib, lekin unga erishishning vaziyati noaniq bo'lsa, talabadan esa vaziyatni aniqlash (to'ldirish) hamda bu notipik masalani echish uchun oldin o'zlashtirilgan harakatni qo'llash talab etilsa, bu эvristik tipdagi mahsuldor harakat hisoblanadi. Talaba bunday faoliyatni tipik harakatning ilgaridan maълum mo'ljal asosini mustaqil o'zgartirish jarayonida o'zi uchun yangi axborotni topish va notipik masalani echish uchun subъektiv yangi (HMA)ni qurish jarayonida bajaradi. Bu эvristik faoliyat bo'lib, tayyor algoritm yoki qoidaga binoan bajarilmaydi, balki harakatning o'zi davomida yaratilgan yoki qayta o'zgartirilgan algoritm yoki qoidaga binoan bajariladi.

7. **Bilimlarni o'zlashtirishning 4-darajasi.** 4-daraja (AIV). Agar vazifa (masala)da faoliyatning maqsadi umumiy tarzdagina maълum bo'lsa, maqsadga erishish uchun vaziyatni ham, harakatni ham ishlab topish talab etilsa, bu ijodiy tipdagi mahsuldor faoliyatdir, buning natijasida faoliyatning obъektiv yangi mo'ljal asosi yaratiladi. Faoliyatni bajarish jarayonida obъektiv yangi axborot olinadi. Bunda kishi o'ziga ilgaridan maълum bo'lgan sohada “qoidasiz” harakat qiladi, harakatning yangi qoidasini yaratadi, yaъni ijodiy (tadqiqotchilik) faoliyatini bajaradi. Tadqiqotchilik va yaratuvchanlikni taqozo qiladigan faoliyatlar bunga misol bo'la oladi.

5. Taъlim maqsadlarini oydinlashtirish. Jamiyatning taъlim sohasidagi buyurtmasi (maq-sadi) umumiy tarzda “Taъlim to'frisida”gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi va boshqa meъyoriy hujjatlarda o'z aksini topgan. Hatto o'quv dasturlarida ko'rsatilgan maqsadlar ham umumiy tarzda bir-ikkitanan jumladan iborat bo'ladi, ulardan aniq bir narsani anglash qiyin. Agar **jamiyat – davlat buyurtmasidan – taъlim tizimining maqsad va vazifalariga, undan shu o'quv yurtining, o'quv pred-metining, uning bo'limlari, mavzulari, ayrim**

o'quv masalalarining maqsadi, vazifasiga qarab borilsa, o'ziga xos **maqsadlar tizimi** (daraxti) hosil bo'ladi.

Maqsadni ta'lim mazmuniga binoan belgilash. O'qituvchi odatda mashfulotning maqsadini mashfulotning maqsadini "Birinchi bobning mazmunini o'zlashtirish", "Bobur lirikasini o'rganish" kabi belgilaydi. Bunda ta'lim maqsadi o'rganilayotgan predmetning, bilimning mazmunini ko'rsatadi. Maqsad bunday ifodalanganda ta'lim maqsadiga erishilganligini aniqlab bo'lmaydi. Keltirilgan misollardagi "maqsadlar" mavhum ulardan maqsadga erishilganligini o'lchab, aniqlab bo'lmaydi.

Ta'lim maqsadini o'qituvchi faoliyati orqali aniqlash. "Boburning badiiy-pedagogik merosini o'rgatish", "10 ichida qo'shish amaliga doir misollar ishlatish". Maqsadni bunday qo'yishda e'tibor o'qituvchining faoliyatiga qaratiladi. Bunda ham pedagog faoliyatining natijasini aniqlash qiyin.

Ta'lim maqsadini talaba shaxsining ruhiy, aqliy, axloqiy, estetik jarayonlari shaklida ifodalash. Masalan, "Voqelikni tahlil etish malaka-sini hosil qilish", "Ekologik hodisalarga qiziqishni shakllantirish" kabilar. Ta'lim maqsadini bunday umumiy tarzda belgilash o'quv yurti, o'quv fani yoki bir guruh o'quv predmetlari darajasida bo'lishi mumkin. Lekin ayrim mashfulot, darsning maqsadini bunday keng ifodalash foydasiz. Bunda ham mashfulotda qanday natijaga erishilganligini bilib bo'lmaydi.

Ta'lim maqsadini talabaning o'quv-bilish faoliyati orqali qo'yish. Mashfulotning maqsadi "Ijodiy tafakkurni shakllantirishga doir vazifalarni hal etish". Bir qarashda ta'lim maqsadini bunday qo'yish mashfulotni rejalashtirish va o'tkazishga aniqlik kiritganga o'xshaydi. Lekin bunda ham eng muhim narsa – mashfulotda ko'zda tutilgan natija e'tibordan chetda qoladi.

Pedagogik texnologiya tarafdorlarining fikricha, ta'lim maqsadlarini predmetning mazmuni, o'qituvchi yoki o'quvchi faoliyati orqali belgilash **mashfulotdan kutiladigan natija haqida to'liq tasavvur bermaydi. Ta'lim natijasini talabaning ko'zga ko'rinadigan harakatlaridan, tashqi belgilaridan bilib olish mumkin.** O'qituvchi ta'lim maqsadi – natijasini oydinlashtirish uchun kutilayotgan natijaning tashqi, kuzatiladigan belgilarini (harakat, nutq) yaqqol tasvirlashi lozim.

Pedagogik texnologiya taklif etayotgan **maqsadni belgilash** usulining mohiyati shundan iboratki, **ta'lim maqsadi, talabaning harakatlarida aks etgan o'qish-o'qitish natijalari orqali ifodalanishi kerak va bu harakatlarni muallim yoki biror ekspert ko'rib, e'shitib bilishi va o'lchashi mumkin bo'lsin.**

Pedagogik texnologiya tarafdorlarining fikricha, ta'lim maqsadlarini predmetning mazmuni, o'qituvchi yoki o'quvchi faoliyati orqali belgilash **mashfulotdan kutiladigan natija haqida to'liq tasavvur bermaydi. Ta'lim natijasini talabaning ko'zga ko'rinadigan harakatlaridan, tashqi belgilaridan bilib olish mumkin.** O'qituvchi ta'lim maqsadi – natijasini oydinlashtirish uchun kutilayotgan natijaning tashqi, kuzatiladigan belgilarini (harakat, nutq) yaqqol tasvirlashi lozim.

Pedagogik texnologiya taklif etayotgan **maqsadni belgilash** usulining mohiyati shundan iboratki, **ta'lim maqsadi, talabaning harakatlarida aks etgan**

o'qish-o'qitish natijalari orqali ifodalanishi kerak va bu harakatlarni muallim yoki biror ekspert ko'rib, eshitib bilishi va o'lchashi mumkin bo'lsin.

4-мaъruza. Pedagogika fanlarini o'qitish metodlari va vositalari

Reja:

1. “Metod”, “taъlim metodlari” va “taъlim usullari” tushunchalarining mazmuni va mohiyati.
2. Zamonaviy didaktikada taъlim metodlarini tasniflashga doir yondashuvlar.
3. Taъlim metodlarining funkцiyalari.
4. Taъlim metodlarini tanlab olish shartlari.

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

1. Pedagogika. / M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: Iqtisod-Moliya, 2008.
2. Hasanboev J. va boshqalar. Pedagogika. – T.: Fan, 2006.
3. Podlasъy I.P. Pedagogika. – M.: Vыsshee obrazovanie, 2008.
4. Pedagogika / Pod.red. P.I.Pidkasistogo. – M.: Vesshee obrazovanie, 2008.
5. Xodjaev B. Talabalarning mustaqil fikrlashini shakllantirish yo'llari. – T.: TDPU, 2008.

Metod so'zi grekcha tadqiqot, maqsadga erishish yo'li, usuli deganidir. Bu so'zning etimologiyasi (kelib chiqishi) uning ilmiy kategoriya sifatidagi talqinida ham aks etgan. “Metod – eng umumiy maъnoda – maqsadga erishish usuli, maъlum tarzda tartibga solingan faoliyat”.

Taъlim metodlari deyilganda, o'rganilayotgan materialni eъgallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo'yicha o'qituvchining o'rgatuvchi ishi va talabalar o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari tushuniladi.

Taъlim usuli – taъlim metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni, Metodlar bilan usullar munosabati o'zaro bir-biriga boъlangan. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga boъlanadi. Usullar yordamida faqat pedagogik yoki o'quv vazifasining bir qismi hal qilinadi. Xuddi shu metodik usullar turli metodlarda foydalanilgan bo'lishi mumkin. Va aksincha xuddi shu metod turli o'qituvchilar tomonidan turli usullarda ochib berilishi mumkin.

Qoida – tanlab olingan metod bilan boъliqlikda faoliyat usullarini amalga oshirish uchun qulay tarzda harakat qilish zarurligini belgilab beruvchi meъyoriy ko'rsatmalardir.

Таълим методлари tasnifi:

1. Anъanaviy (manbasiga ko'ra) taъlim metodlari (E.I.Golant, N.M.Verzilin va bosh.)
2. Talabalarning bilish faoliyati tavsifiga ko'ra taъlim metodlari tasnifi (I.YA.Lerner va M.N.Skatkin).
3. Asosiy didaktik maqsadlariga ko'ra taъlim metodlari tasnifi (M.A.Danilov va B.P.Esipov).
4. Taъlimning binar metodlari (M.I.Mahmutov).
5. YAxlit yondashuv bo'yicha taъlim metodlari tasnifi (YU.K.Babanskiy).
6. Taъlimning interfaol metodlari.

Анъанавий (манбасига кўра) таълим методлари таснифи

| Оғзакӣ | Ко'ргазмали | Амалий | Китоб билан ишлаш | Videometod |
|--|-----------------------------|--|--|--|
| Никоя Сuhbat Тushuntirish Маъруза Мunozara | Иллюстрация Demonstrация | Машқ Амалий Laboratoriya Didaktik o'yin | О'qish О'rganish Reja tuzish Konspekt qilish | Ко'rish, О'rganish, Nazorat qilish |

Ўқувчиларнинг билиш фаолияти тавсифига кўра таълим методлари таснифи

| Таълим metodi | О'қитувчи faoliyati | Talaba faoliyati |
|-----------------------------------|--|--|
| Axboriy-receptiv | O'quv axborotini uzatish, o'rganilayotgan ob'ekt bilan talaba harakatini tashkil etish | Bilimlarni idrok etish, anglash va yodda saqlash. |
| Reproduktiv | Bilimlar hamda aqliy va faoliyat usullarini hosil qilishga doir topshiriqlarni tuzish va taqdim etish | Namuna asosida bilimlarni hamda aqliy va faoliyat usullarini egallash. |
| Muammoli bayon etish | Muammoni qo'yish va uni hal etish usullarini ochib berish | Topshiriqni idrok etish va uni qismlarga ajratish. Topshiriq qismlarini mustaqil hal etish va o'z-o'zini nazorat qilish |
| Эвristik (qisman-izlanish) | Muammoni qo'yish va uni hal etishga doir qadamlar ketma-ketligini rejalatirish. Talabalar faoliyatini boshqarish | Qo'yilgan vazifa bilan borliqlikda muammoni hal etish yo'llarini mustaqil izlash va o'qituvchining qisman ko'magi yordamida muammoni hal etish |
| Tadqiqotchilikka doir | Mustaqil hal etishga doir muammoli vazifalarni shakllantirish. Muammoni hal etilish jarayonini nazorat qilish | Muammoni mustaqil hal etish. |

Asosiy didaktik maqsadlariga ko'ra taъlim metodlari tasnifi:

- **YAngi bilimlarni egallash metodlari;**
- **Ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodlari;**
- **Bilimlarni amaliyotda qo'llash metodlari;**
- **Bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va nazorat qilish metodlari.**

Таълимнинг бинар методлари

| O'rgatish metodlari | O'rganish metodlari |
|-------------------------|-----------------------|
| Axboriy-maълumotli | Ijro etish (bajarish) |
| Tushuntirishli | Reproduktiv |
| Ko'rgazmali-amaliy | Ijodiy-amaliy |
| Tushuntirishli-undovchi | Qisman izlanishli |
| Undovchi | Izlanishli |

Яхлит ёндашувга кўра таълим методлари таснифи

- Ўқув-билиш фаолиятини ташкил этиш ва амалга ошириш методлари.
- Ўқув-билиш фаолиятини мотивациялаш ва рағбатлантириш методлари.
- Ўқув-билиш фаолиятини назорат ва ўз-ўзини назорат қилиш методлари.

Ўқув-билиш фаолиятини ташкил этиш ва амалга ошириш методлари

| | | | |
|---|---|--|--|
| O'quv axborotini uzatish va idrok etish manbasiga ko'ra | O'quv axborotini uzatish va idrok etish mantiqiga ko'ra | Talabalarning mustaqil fikrlash darajasiga ko'ra | O'quv ishini boshqarish tavsifi bo'yicha |
| Orzaki, Ko'rgazmali, Amaliy | Induktiv, Deduktiv | Reproduktiv. Produktiv: muammoli, muammoli-izlanishli, evristik | O'qituvchi rahbarligida bajariladigan o'quv ishi. Talabalarning mustaqil ishlari. |

Ўқув-билиш фаолиятини мотивациялаш ва рағбатлантириш методлари

| O'qishga qiziqishni motivatsiyalash metodlari | O'qishga burch va mas'uliyatni ra'batlantirish metodlari |
|---|---|
| Bilish faoliyatini tashkil etishga doir o'yinlar. O'quv munozaralar. Vaziyatlarni yaratish. | O'rganishning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatiga ishonch hosil qilish. Talab qo'yish. Ra'batlantirish. Ogohlantirish. |

Ўқув-билиш фаолиятини назорат ва ўз-ўзини назорат қилиш методлари

| Nazorat va o'z-o'zini nazorat qilishning o'fzaki metodlari | Nazorat va o'z-o'zini nazorat qilishning yozma metodlari | Nazorat va o'z-o'zini nazorat qilishning amaliy metodlari |
|---|---|---|
| Individual so'rov, ommaviy so'rov, dasturlashtirilgan so'rov, o'fzaki o'z-o'zini nazorat ishi | Yozma nazorat ishi, dasturlashtirilgan yozma ish, yozma o'z-o'zini nazorat ishi | Laboratoriya ishi, laboratoriyali o'z-o'zini nazorat ishi |

Интерфаол методлар

| O'rganilayotganlarini o'zlashtirishga da'vat qilish metodlari | Yangi materialni anglash metodlari | O'rganilganlarini fikrlashga imkon beruvchi metodlar |
|--|---|--|
| Erkin yozish. Klaster. Aqliy hujum. B-B-B chizmasi. Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi. Semantik xususiyatlar tahlili. | Semantik xususiyatlar tahlili. B-B-B chizmasi. O'qitish bo'yicha qo'llanma. Bir-biriga o'rgatish. Bir-biridan so'rash. Ikki qismli kundaliklar. Eng asosiy tushunchalar | Eng asosiy tushunchalar, takrorlash. T-chizma. Konseptual jadval. Venn diagrammasi. Nilufar guli. Besh minutlik esse. O'n minutlik esse. |

“Taʼlim metodlari” mavzusidagi konseptual jadval

| Metodning mazmuni | Belgilari | Taʼrifi | Funktsiyasi | Qoidalari | Izoh |
|---|------------------|----------------|--------------------|------------------|-------------|
| Анъанавiy metodlar. | | | | | |
| Bilish faoliyati tavsifiga koʻra taʼlim metodlari. | | | | | |
| Didaktik maqsadiga koʻra taʼlim metodlari | | | | | |

Таълим vositalari

Таълим metodlari таълим vositalari bilan birgalikda qo'llaniladi. Didaktik vositalar deganda, o'quv va ko'rgazmali qo'llanmalar, namo-yishli qurilmalar, texnik vositalar tushuniladi. Таълим vositalari – bu yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun o'qituvchi va talabalar tomonidan foydalaniladigan ob'ekt. Таълим vositalari katta ahamiyatga ega. Таълимning barcha vositalari таълим maqsadlarini muvafaqqiyatli amalga oshiradi.

Таълим vositalari o'zida o'quv-tarbiyaviy maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan moddiy yoki maъnaviy qadriyatlarni aks ettiradi. Odatda ular таълим metodlariga mos holatda foydalaniladi. Biroq agar metodlar «qanday o'qitish» savoliga javob bersa, vositalar esa, «uning yordamida niamani o'qitish» savoliga javob beradi.


Anъanaviy ravishda qo'laniladigan таълим vositalariga darslik, rasmlar, jadvalar, nutq, o'quv-ustaxonasi jihozlari, laboratoriyalar, axborot vositalari, o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish vositalari kiradi.

“Metod” va “vosita” o'rtasidagi o'zaro nisbat

Fanni o'qitish bilan boғliq holda таълим vositasi tanlanadi. O'qituvchi o'zining ixtiyori bo'yicha ko'rgazmali material, o'quv qo'llanmadan foydalanishi mumkin. Таълим vositasini qo'llashning yana bir jihati albatta таълим jarayonining tarkibiy qismi sifatida aks ettirishidir.

Таълим vositasini tanlab olish таълим metodini tanlab olish bilan boғliq. Agar таълимning faol metodi(kitob bilan ishlash, mashqlar) foydalanilsa, u holda o'quv qo'llanmalari, darsliklar va таълимning texnik vositalaridan foydalaniladi. Aynan таълимning aktiv-texnik vositalari amaliy metodlarda foydalaniladi.

Таълимning passiv(sust) metodlari(talabalar eъshitadi, yaъni hikoya, maъruza, tushuntirish, eъskursiya) таълимning ko'rgazmali vositalaridan foydalaniladi. Таълимning ko'rgazmali vositalari pedagogning o'zi tomonidan tuzilgan bo'lishi mumkin.



Таълим воситalaridan foydalanish shart-sharoitlari

Vositalarining istalgan turidan foydalanishda o'lchov va mutanosib-likka e'tibor berish kerak. Masalan, ko'rgazmali vositalarning soni etarli bo'lmasligi bilimlarning sifatiga ta'sir ko'rsatadi, bilishga qiziqishni pasaytiradi, obrazli idrok etishni rivojlantirmaydi. Ulardan haddan tashqari foydalanish talabalarning o'rganilayotgan fanga engil-elpi qara-shiga olib keladi. Murakkab mavzularni o'rganishda 4-5 demonstratsiya optimal hisoblanadi.

Таълим vositalari tasnifi

Таълим vositalari tasnifi aniq va yagona bo'lishi mumkin emas. Таълим vositasining ahamiyatli tomoni ularning birgalikda qo'llanili-shidir va hech qachon bir-birini inkor etmaydi. O'qituvchining vazifasi – dars jarayonini faollashtirish uchun taъlimning samarali vositasini tanlab olishdir.

Таълим vositalarini tasniflashda turli asoslarga ko'ra yondashish mumkin:

- faoliyat sub'ektiga ko'ra;
- faoliyat ob'ektiga ko'ra;
- o'kuv axborotiga munosabatiga ko'ra;
- o'quv jarayonidagi vazifasiga ko'ra.

Faoliyat sub'ekti bo'yicha taъlim vositalari tasnifi

Faoliyat subʼekti boʻyicha taʼlim vositalari oʻrgatish va oʻrganishga boʻlinadi.

1. Oʻqitish vositalari. Masalan, namoyishli-tajriba qurollari. Bunday qurollar oʻqituvchi tomonidan mavzuni tushuntirish va mustahkamlash uchun qoʻllaniladi.

2. Oʻrganish vositalari. Masalan, laboratoriya-praktikum qurollari. Bunday vositalar talabalar tomonidan yangi bilimlarni egallash uchun qoʻllaniladi.

V.A. Slasteninning fikricha, didaktik vositalar oʻqituvchi va talaba uchun xosligiga qarab, ikkiga boʻlinadi. Birinchisiga koʻra, narsalar oʻqituvchi tomonidan taʼlimning maqsadlarini samarali realizatsiyalash uchun qoʻllanilsa, ikkinchisi – bu talabalarning individual vositalari, darsliklar, daftarlar. Bundan tashqari didaktik vositalar oʻqituvchi va talabalar faoliyat turiga koʻra sport qurollari, botanika va geografiya maydonchasi, kompyuterlarga ham boʻlinadi.

Faoliyat obʼektlari boʻyicha taʼlim vositalari tasnifi

Faoliyat obʼektlari boʻyicha ham taʼlim vositalari ikkiga boʻlinadi:

1. Material taʼlim vositalari. Bu oʻquv qoʻllanmalari, darsliklar, jadvallar, maketlar, modellar, oʻquv-texnik vositalar, mebel, oʻquv-laboratoriya qurilmalari, koʻrgazmali vositalar boʻlishi mumkin.

2. Ideal taʼlim vositalari – bular pedagog va talabalar yangi bilimlarni egallashda qoʻllaydigan vositalar: chizmalar, sxemalar, diagrammalar, tasviriy, sanʼat, nutq, xat va boshqalar. Ideal vositalar – bu «fikrlar haqidagi fikrlar»: oʻqituvchi ularni oʻrgatish uchun belgilangan shaklda koʻrsatishi zarur. Masalan, materializatsiya – abstrakt simvollar tarzida koʻrsatiladigan vosita (grafiklar, jadvallar, chizmalar), verbalizatsiya – nutq bayoni tarzida koʻrsatiladigan vosita (tahlil, muhokama qilish, dalil keltirish).

Material va ideal vosita bir-birini toʻldiradi. Material vosita qiziqish va diqqatni uyʼotish, amaliy harakatlarni amalga oshirish bilan boʻliq boʻlsa, ideal vositalar – mantiqiy muhokama. Materialni tushuntirish, nutq madaniyati, yod olish bilan boʻliq.

Oʻquv axborotiga munosabatiga koʻra taʼlim vositalari yangi materialni oʻrganish vositalari, takrorlash, mustahkamlash, umumlashtirish vositalari, bilimlarni nazoart qilish vositalari, oʻquv jarayonini tashkil etish boshqarish vositalari va axborot vositalariga boʻlinadi.

Oʻquv jarayonidagi vazifasiga koʻra taʼlim vositalari kommunikatsiya (muloqot) va oʻquv ishlari vositalariga tasnif etiladi. Oʻquv ishi vazifa, muammo, masalalarni hal etish, turli mashqlarni bajarish jarayonidir. Taʼlim – kommunikatsiya (muloqot) oʻqituvchi va talabalarning oʻquv faoliyati sanaladigan kommunikativ-faoliyatli jarayon. Kommunikatsiya – bu kodlash (oʻqituvchi nutqidagi atamalarda), uzatish (yozilish) va talabalarning axborotni qabul qilishi (tushunish va dastlabki eslab qolish).

Didaktik vositalar his qilish, sezish uchun foydalanishiga koʻra ham tasnif qilinadi. Bunday boʻliqlikka koʻra didaktik vositalar vizual (koʻrish) – haqiqiy (original) narsalar yoki turli obrazli ekvivalentlari, diagrammalar, kartalar;

audial(əshitish) – radio, magnitofon, musiqa asboblari; audioizual(koʻrish-əshitish) – ovozi filmlar, televidenie, kompyuterlar, didaktik mashinalar, elektron darsliklar.

Taʼlimning texnik vositalari

TTV – bu oʻzida oʻquv-axborotlarini ekranli-ovozi aks ettiruvchi asbob va moslamalardir. Ularga:

1. Oʻquv kinofilmlari.
2. Diafilmlar.
3. Kompyuterlar.
4. Magnitofon tasmalari.
5. Radioəshittirish.
6. Telekoʻrsatuvlar kiradi.

TTVlarini kuyidagi turlarga boʻlish mumkin:

- axborot;
- aralash(kombinatsion);
- trenajyor;
- bilimlarni nazorat qilish vositalari;
- audiovizual vositalar.

TTVning funktsiyalari:

- taʼlimning sifati va samaradorligini oshiradi;
- oʻquv jarayonining jadallashuvini taʼminlaydi;
- talabalarni idrok qilishga yoʻnaltiradi;
- talabalarda bilimlarni egallashga nisbatan katta qiziqish hosil qiladi;
- dunyoqarashni, ishonchni, talabalarning axloqiy qiyofasini shakllantirishga yordam beradi;
- oʻquv ishiga nisbatan talabalarda emotsional munosabatni oshirishni taʼminlaydi;
- bilimlarni nazorat, oʻzini-oʻzi nazorat qilishni taʼminlaydi.

Pedagogika fanlarini oʻqitishda interfaol metodlardan foydalanish yoʻllari

B/B/B chizmasi

B/B/B chizmasi – Bilaman/ Bilishni hohlayman/ Bilib oldim. Mavzu, matn, boʻlim boʻyicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi.

Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish koʻnikmalarini rivojlantiradi.

Oʻquvchilar:

1. Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida /kichik guruhlarda jadvalni

rasmiylashtiradilar.

2. “Mavzu bo’yicha nimalarni bilasiz” va “Nimani bilishni xohlaysiz” degan savollarga javob beradilar (oldindagi ish uchun yo’naltiruvchi asos yaratiladi). Jadvalning 1 va 2 bo’limlarini to’ldiradilar.

3. Ma’ruzani tinglaydilar, mustaqil o’qiydilar.

4. Mustaqil/kichik guruhlarda jadvalning 3 bo’limni to’ldiradilar

| B/BX/B JADVALI | | |
|-----------------------|---------------------------|--------------------|
| Bilaman | Bilishni xohlayman | Bilib oldim |
| | | |

“Erkin yozish”

O’qituvchi o’quvchilarga besh minut vaqt davomida “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi haqida bilganlarini daftarlariga yozishni so’raydi. Vaqt tugagach, ba’zi o’quvchilardan yozganlarini o’qib berishni so’raydi. Vaqtdan yutish uchun qolgan o’quvchilar avval o’z yozganlarini o’qib bergan o’quvchilarnikiga o’xshamagan fikrlarini aytishlari mumkin.

“Besh minutlik esse”.

YOzma topshiriqning ushbu turida o’quvchilardan quyidagi ikki topshiriqni bajarish: mazkur mavzu bo’yicha ular nimalarni o’rganganliklarini mustaqil bayon etish va ular baribir javobini ololmagan bitta savol berish so’raladi.

“YAgona pedagogik jarayon” mavzusiga doir toifalash jadvali

| “YAgona pedagogik jarayon” tushunchasi tavsifi | YAgona pedagogik jarayonning tuzilishi va tarkibiy qismlari | YAgona pedagogik jarayonning qonuniyatlari | YAgona pedagogik jarayonning tamoyillari |
|---|--|---|---|
| | | | |

| | | | |
|--|--|--|--|
| | | | |
|--|--|--|--|

KLASTER

Klaster -axborot xaritasini tuzish yo'li - barcha tuzilmaning mohiyatini markaz-lashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida foyalarni yirish


Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bo'lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.

O'quvchilar:

1. YOzuv taxtasi yoki katta qo'roz varafining o'rtasiga **“Didaktika”** degan mavzu nomi yoziladi Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar.
2. Birikma bo'yicha asosiy so'z bilan uning yonida mavzu bilan bo'liq so'zlar kichik doirachalar “yo'ldoshlar” yozib qo'shiladi. Ularni “asosiy” so'z bilan chiziqlar yordamida birlashtiradilar. Bu “yo'ldoshlardan” “kichik yo'ldoshlar” chiqariladi. YOzuv ajratilgan vaqt

davomida yoki ʻroyalar tugagunicha davom etishi mumkin.

3. Muhokama uchun klasterlar bilan almashinadilar.



KONCEPTUAL JADVAL

Konceptual jadval o'rganilayotgan hodisa, tushuncha, fikrlarni ikki va undan ortiq jihatlarini bo'yicha taqqoslashni ta'minlaydi. Tizimli fikrlash, ma'lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'quvchilar:

1. Konceptual jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Taqqoslanadiganlarni aniqlaydilar, olib boriladigan taqqoslanishlar bo'yicha xususiyatlarni ajratadilar

2. Alohida yoki kichik guruhlarda konceptual jadvalni to'ldiradilar:

- uzunlik bo'yicha taqqoslanadigan (fikir, nazariyalar) joylashtiriladi;
- yotizi bo'yicha taqqoslanish bo'yicha olib boriladigan turli tavsiflar yoziladi.

3. Ish natijalarining taqdimoti.

**«Iqtisodiy rivojlangan xorijiy davlatlarda taʼlim tizimi» mavzusidagi
konseptual jadval (lavha)**

| Iqtisodiy rivojlangan xorijiy davlatlar <i>(o'qituvchi va o'quvchilarning hoxishiga ko'ra)</i> | Taʼlim tizimi | | | |
|--|---------------------------|----------------------------|----------------------------|--------------------|
| | <i>Maktabgacha taʼlim</i> | <i>Umumiy o'rta taʼlim</i> | <i>O'rta maxsus taʼlim</i> | <i>Oliy taʼlim</i> |
| Amerika Qo'shma SHtatlari | | | | |
| Françiya | | | | |
| Germaniya | | | | |
| Yaponiya | | | | |
| Kitay | | | | |
| Aljir | | | | |


VENN DIAGRAMMASI

VENN DIAGRAMMASI - 2 va 3 jihatlarni hamda umumiy tomonlarini solish-tirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llaniladi.

Tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivoj-lantiradi.

O'quvchilar:

- 1) kichik guruhlarda Venn diagrammasini tuzadilar va kesishmaydigan joylarida Bobur, Navoiy, Jomiy va Davoniyning axloqiy tarbiyaga oid fikrlarini oydinlashti-rib olib, to'ldiradilar.
- 2) juftliklarga birlashadilar, o'zlarining diagrammalarini taqqoslaydilar va to'ldiradilar.
- 3) doiralarning kesishuvchi joyida ikki doira uchun umumiy bo'lgan fikrlar ro'y-xatini tuzadi.
- 4) ish natijalarining taqdimoti.



Ikki qismli kundaliklar

Ikki qismli kundaliklar (Bertalf, 1981) o'quvchilarga matn mazmunini o'z shaxsiy tajribasi bilan chambarchas bo'lash, o'zining tabiiy qiziquvchanligini qondirish imkonini beradi. Ayniqsa, o'quvchilar qandaydir adabiyotlarni o'quv auditoriyasidan tashqari o'qib chiqish topshirifini olishganida ikki qismli kundaliklar foydalidir.

Ikki qismli kundalik uchun o'quvchilar yozilmagan qo'fning o'rtasidan tik chiziq o'tkazib, uni ikkiga ajratishlari kerak. Ko'fning chap tomoniga matnning qaysi qismi ularga eng ko'p taassurot qoldirganini qayd etishadi. Ehtimol, u qandaydir xotirani uyfotar yoki hayotlarida yuz bergan voqealarni esga tushirar, yoki shunchaki taajjubga solar. YOxud ularning qalbida keskin norozilik hissini uyfotar. O'ng tomonida ular sharh berishlari kerak: ayni shu ijatani yozishga ularni nima majbur etdi? Ularga qanday fikrlar uyfotdi? SHu munosabat bilan

ular da qanday savol tuřildi? Qisqasi, matnni o'qirkan, o'quvchilar vaqti-vaqti bilan to'xtashlari va o'zlarining qo'shaloq kundaliklarida shunday belgilar qo'yib borishlari kerak.

Quyida ana shunday ikki qismli kundalikka misol keltiramiz:

| | |
|-------------------|--|
| SHaxs | |
| Davlat va jamiyat | |
| Uzluksiz taъlim | |
| Fan | |
| Ishlab chiqarish | |

Bayonot (Выступленie)

Maqsadi:

- inscenirovka taklif etilgan mavzu yoki qandaydir qo'yilgan vaziyatga o'zining munosabatini konspektiv tarzda bayon etish, nutq ayta olish, tezkor fikrlay olishni rivojlantirish maqsadida o'tkaziladi;

- chiqishlarni tahlil qilish va baholash, maъruza qiluvchilarni baholash mezonlarini ishlab chiqish ko'nikmasini shakllantiradi.

1. Pedagog yoki boshqa boshlovchi mavzuni, maqsadni эълон qiladi va unga qiziqishni rivojlantiradi.

2. Экспертлар va sekretarъ belgilanadi.

3. Qaysi mavzu bo'yicha, maъruzachilar o'zlarini qanday vaziyatda tasavvur qilishlari va qanday ko'rsatkichlar bo'yicha baholanishlari aytib o'tiladi.

4. Tayyorlanish uchun vaqt beriladi. Har bir ishtirokchi individual tarzda o'zining ma'ruzasini tayyorlaydi.

5. Keyin ishtirokchilarga navbati bilan so'z beriladi. Ma'ruzalar besh minutdan oshmasligi kerak. Qolgan tinglovchilar ma'ruzachilarni tinglashadi.

6. Ma'ruzalar tugaganidan so'ng, ekspertlar chiqishlarni aytib o'tilgan mezonlar bo'yicha baholashadi. CHiqishlarni tahlil etish uch bosqichda amalga oshiriladi. Har bir ekspert chiqishga mos bahoni qo'yadi va ma'ruzachining o'rmini belgilaydi. Keyin o'zining tashabbusi bilan yonidagi sherigi bilan baholash bo'yicha aloqaga kirishadi. Zaruriyat tufilganda, o'zining bahosiga o'zgartirish kiritadi. SHundan so'ng, umumguruhiiy munozara o'tkaziladi. CHiqishlarning mazmuni tahlil qilinadi, ma'ruzachilarning xatti-harakatlaridagi ijobiiy va salbiy jihatlar aniqlashtiriladi.

7. Texnik ekspert ma'ruzachilar e'gallagan o'rinlarni e'lon qiladi.

Boshlovchi chiqishlar bo'yicha yakuniiy xulosani aytadi va umumlashtiradi.

Ma'ruza-maslahat

Maqsadi:

- talabalarda savol tuza olish ko'nikmasini shakllantirish;
- uni amaliyotda qo'llay olish uchun materialni o'zlashtirish.

Mazkur metod mavzuni o'rganishda uning amaliy yo'nalganligi bilan uyfunlgini ta'minlaydi. U quyidagi variantlarda amalga oshirilishi mumkin.

Savol-javoblar. O'qituvchi o'quv materialini bayon etadi (bunda ma'ruzaning 50-70% vaqti sarflanishi mumkin), u ko'rib chiqilayotgan nazariy qoidalarning amaliyotda qo'llanilishiga doir qator nuanslarga alohida e'tibor qaratadi, qolgan vaqtda tinglovchilarning savollariga javob beradi.

Savollar-javoblar-munozara. Mashfulotdan bir necha kun oldin o'qituvchi talabalarni navbatdagi o'tiladigan mavzuning nomi bilan tanishtiradi va ulardan yozma ravishda savollar to'playdi. Mashfulotning birinchi qismi mavzuning asosiiy jihatlarini bayon etish tarzida o'tkaziladi va tinglovchilarning savollariga javoblar beriladi. Ularni rivojlantirish va to'ldirish asosida o'qituvchi materialni bayon etadi. Mashfulotning ikkinchi qismi mazkur muammoga doir erkin fikrlar almashish

shaklida o'tadi va tinglovchilarning qo'shimcha savollariga javoblar beriladi. YAKunida lektor (ma'ruzachi) munozara yakunlarini chiqaradi.

SHunday holatlar ham bo'ladiki, tinglovchilardan juda kam savollar bo'ladi yoki umuman bo'lmaydi. Buning sabablariga quyidagilar kiradi:

1) o'rganilayotgan materialni amaliyotda qo'llash tinglovchilarda qiyinchilik tufdirmaydi; mazkur holatda odatdagi an'yanaviy ma'ruzaning o'zi etarli;

2) mavzu umuman yangi, shuning uchun tinglovchilar hatto uni amaliyotda qo'llash jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarni tasavvur qila olishmaydi;

3) tinglovchilar ko'rib chiqilayotgan muammoning chuqurligi va murakkabligini etarlicha baholay olishmaydi, o'z tajribalariga ortiqcha baho berishadi.

Ishdagi faollikni oshirish uchun dasturlashtirilgan konsulytatsiyani qo'llash mumkin. U odatdagi guruhli konsulytatsiyadan shunisi bilan farq qiladiki, bunda lektorning o'zi tinglovchilarga savollar bilan murojaat qiladi.

Dastlab lektor tinglovchilardan savollarga javob so'raydi, keyin esa xato va noto'g'ri javoblarni tahlil etadi.

Dasturlashtirilgan konsulytatsiya qoidaga muvofiq, ma'ruza va ma'ruzalar cikli tugaganidan so'ng o'tkaziladi. Tinglovchilar materialni yaxshi o'zlashtiradilar, ularda muammoni to'g'ri hal etish algoritmi shakllanadi.

Dasturlashtirilgan konsulytatsiyada har bir ishtirokchida qiziqish hosil qilish uchun qayta aloqadan foydalanish mumkin. Barcha ishtirokchilarga savol va ulardan biri to'g'ri bo'lgan uch-besh javob taqdim etiladi. Qachonki, ma'ruzachi to'g'ri javobni aytganda, noto'g'ri javobni aytgan tinglovchilarda savol paydo bo'ladi. Ma'ruzachi bunday holatda to'g'ri javob bergan talabalardan o'z javoblarini izohlab berishni yoki o'zi savolni tushuntirib beradi.

Tushunchalarni aniqlash

Maqsadi:

- talabalarni gapdagi har bir so'zni tushuna olishga o'rgatish;
- talabalarning gapdagi har bir so'zga e'tiborli munosabatda bo'lish zaruriyatini anglashlariga yordam berish;
- o'quv topshirig'ini bajarishda guruhlarda hamkorlikda ishlash ko'nikmasini shakllantirish.

O'qituvchi izohni **tushunish** – bu talabalarning narsa yoki hodisalarda bildiradigan obrazlarni tasavvur etish olish ekanligini aytishdan boshlaydi. Bu faqatgina tasavvur etishgina emas, balki so'zni tushunishning birinchi darajasi.

So'zni to'g'ri tushunish qachonki, talabalar narsa yoki hodisaning tuzulishiga oid tarkibiy qismlar(nimalardan tashkil topgan) va uning funktsional o'ziga xosliklari (nimaga yordam beradi, u bilan nima qila olish mumkin va boshqalar)ni aytib bera olganda, yuzaga keladi.

Mashfulet quyidagi tarzda o'tkaziladi:

1. Barcha talabalar kichik guruhlariga bo'linishadi.
2. Har bir guruh matnni oladi. Barcha guruhlardagi matnlar bir xil yoki turli xil bo'lishi mumkin.

O'qituvchi gaplardagi notanish so'zlarni topish va izohli lufatlar, o'qituvchining yordamida ularning ma'nosini izohlab berishni so'raydi.

3. Guruhlarda matn ustida ishlash boshlanadi. Talabalar birgalikda notanish, tushunarsiz so'zlarni topishadi va ularning ma'nosini birgalikda izohlashadi.

4. Topshiriq bajarib bo'linganidan so'ng, "kichik guruhlariga hujum" boshlanadi. Savol beruvchi va javob beruvchi guruhlar qur'ba tashlash yo'li bilan aniqlanishi mumkin. Barcha guruhlar navbati bilan dastlab birinchi guruhga savol berishadi, ikkinchi va boshqalar. Masalan:

Bir guruh savol beradi.

Savol berilgan guruh a'zosi tezda javobni aytishi lozim.

Guruh javob bergandan so'ng uning to'g'riligi ekspertlar guruhi tomonidan baholanadi. Baholash 0 ballidan 5 ballgacha bo'lishi mumkin.

5. YAkunlarini chiqarish. O'qituvchi ko'p ball yifgan guruhni e'lon qilishi mumkin. Mazmuni noto'g'ri tushunilgan so'zlarga izoh beriladi.

O'zaro o'rin almashinuvchi juftliklar va guruhlar

Maqsadi:

- talabalarni materialning tuzulishi, asosiy fikrlarni belgilay olish, esda saqlab qolish mumkin bo'lgan shaklda ularni tasavvur eta olishga o'rgatish;

- gapira olish ko'nikmasini shakllantirish;

- hamkorlikka o'rgatish.

1. Birinchi bosqichda pedagog asosiy fikrlarni tasavvur etishning turli shakllari haqida hikoya qilib beradi.

Asosiy fikrlarni tasavvur etishning birinchi turi oddiy – bu asosiy fikrlarni so'z yoki qisqa gaplar tarzida tasavvur etishdir. Mazkur so'z yoki gaplar ustunlar tarzida nomer qo'yish orqali yoziladi.

Asosiy fikrlarni tasavvur qilishning ikkinchi shaklida o'zak belgilab olinadi va ana shu o'zak atrofida asosiy fikrlar jamlanadi.

Asosiy fikrlarni shakllantirishning uchinchisi shakli – bu ularni qisqartirish yoki shartli belgilar bilan almashtirishdir.

2. Ikkinchi bosqichda talabalar kichik guruhlariga birlashadilar. Har bir kichik guruh o'ziga berilgan matnni oladi va uni o'qiydi. Matnlar hammada har xil.

3. SHundan so'ng guruhda har bir talaba mustaqil ravishda mazkur matnga doir tayanch konspektini tuzishadi.

4. Navbatdagi bosqichda talabalar juftliklarda o'zlarining tayanch konspektlari haqida fikr almashishadi. Mazkur bosqichda o'zining tayanch konspektini o'zgartirish imkoniyati mavjud.

5. Navbatdagi bosqichda tayanch konspekt guruhiy muhokama etiladi. Guruh o'zaro kelishgan holda qandaydir yaratilgan tayanch konspektini qabul qiladi. Mazkur

bosqichda guruh butun jamoaning oldida “ovoz chiqarib” aytib beruvchi talabani aniqlab olishi kerak.

6. Mazkur bosqichda guruhning bir aʼzosi aniqlangan tayanch konspekt boʻyicha chiqish qiladi va oʻqilgan matnning mazmunini bayon etadi. Barcha talabalar eʼshitishlari kerak. Mazkur davrda meʼyorlarning bajarilishini taʼminlaydigan texnik ekspertning majburiyati namoyon boʻladi.

7. Birinchi guruh aʼzosi chiqishini tugatgandan soʻng boshqa guruh savol berishi mumkin. Savollarga javob beriladi. Mazkur turdagi ish baholanishi mumkin (ballar jadvalda qoʻyiladi). Savollarning navbat bilan berilishini texnik ekspert yoʻlga qoʻyadi.

8. Sakkizinchi bosqichda boshqa guruhning vakili agar asosi mavjud boʻlsa, qilingan chiqishni toʻldiradi.

9. Toʻliqiznichi bosqichda boshqa guruh vakili chiqish, savollarga javoblar boʻyicha noroziligini ifoda etadi.

Ana shu erda birinchi matn bilan ishlash yakunlanadi. Pedagog yoki ilmiy ekspert yakunlarni chiqaradi.

Keyingi bosqichda boshqa guruh vakili oʻzining tayanch konspektini namoyish etadi. Mazkur harakat hamma chiqishlar tugaguncha davom etadi.

Inspektorovka yakunlarni chiqarish bilan tugallanadi. Har bir guruh toʻplagan ballarni hisoblash va jami ballar ustuniga yozib qoʻyilishi kerak. Ana shu asosdan kelib chiqib, oʻrinlarni ham belgilash mumkin.

Oʻzini-oʻzi baholash

| | Doimo | Baʼzan | Hech |
|--|--------------|---------------|-------------|
| qachon | | | |
| 1. Men matn (voqea-hodisa)ning nomi va undagi mazmun haqida bilib olaman. | | | |
| 2. Men biz tahlil qilayotgan matn (voqea-hodisa)ning tashqi ifodasiga qarab unda nima boʻlishini fahmlab olaman. | | | |
| 3. Men oʻqiyotib, hamma taxminlarimni kalamda saqlayman. | | | |
| 4. Men menga taxmin qilishda yordam beruvchi tafsilotlarga eʼtibor beraman. | | | |

5. Men hatto boshqa biror bir narsani o'qiyotganimda ham baribir to'xtab o'zimdand so'rayman: menga nima ma'lum va menimcha nima bo'ladi?

Guruhiy o'z-o'zini nazorat qilish

| qachon | Deyarli | Har doim | Baъzan | Hech |
|--|----------------|-----------------|---------------|-------------|
| Munozara boshlashdan burun biz vazifani aniqlaymiz. | | | | |
| Biz berilgan mavzudan chetga chiqmaymiz | | | | |
| Muhokamada hamma qatnashadi | | | | |
| Javob berishdan oldin, biz suhbatdoshni tinglaymiz. | | | | |
| Qandaydir xulosaga kelishdan oldin biz har xil fikrlar bildiramiz. | | | | |

Munozara oxirida biz bir fikrga kelamiz

Bizdan kimdir hamma aytilganlarning bayonnomasini olib boradi.

Bir necha manbalardan foydalanib maъruza tayyorlash

Talabalar odatda seminar mashgulotlarida javob berish uchun maъruzalar tayyorlashadi. Buning uchun talabalarga maъruzalar tayyorlash yo'llari va imkoniyatlarini o'rgatish lozim. Ana shunday imkoniyatlardan biri – bu bir necha manbalardan foydalanib maъruza tayyorlash hisoblanadi. Mazkur maъruza jadval holatida tayyorlanib, talabaga javob berish uchun tayanch signal vazifasini bajaradi. Buning uchun talaba besh ustundan va materilning hajmiga qarab bir necha ustundan iborat oddiy jadval tuzadi. YUqoridagi qatordagi ustunlarda axborotning turli manbalari nomini ko'rsatishadi: darsliklar, jurnal maqolalari, internet materiallari, intervyular.

CHap tomondan birinchi katakning har bir qatoriga talaba mavzuga tegishli yoki javob olinishi zarur bo'lgan savolni yozadi:

| Savollar | Darslik | Jurnal maqolalari | Internet materiallari | Intervъyu |
|-------------------------------|----------------|--------------------------|------------------------------|------------------|
| Muzliklar qaerda joylashgan? | | | | |
| Muzliklar qanday shakllanadi? | | | | |
| Muzliklar qanday pastga | | | | |


| | | | | |
|---|--|--|--|--|
| tushadi? | | | | |
| Dunyo muzliklarida qancha toza suv bor? | | | | |
| Muzlik davrida muzlarning siljishi qanday taʼsir koʻrsatgan? | | | | |
| Nima uchun muzliklarga oftob tushganda koʻkimsiz rangga kiradi? | | | | |
| Muzliklar necha yoshda? | | | | |

YOzma va oʻfzaki “Davra suhbatl”

YOzma “Davra suhbatl” – bu birgalikdagi oʻqitish metodi boʻlib, bunda qoʻfoz va ruchka doimo aylana boʻylab, oʻyin ishtirokchilarining kichik guruhi orasida uzatib turiladi. Misol uchun, sheriklardan bir qandaydir foyani yozib, keyin varaqni chap tomonidagi sherigiga uzatadi. U oʻsha foyaga oʻzining qandaydir mulohazalarini qoʻshadi va varaqni keyingi kishiga uzatadi. Ushbu rusum-qoidaning boshqa variantida har bir ishtirokchi yozuvini oʻzining rangi bilan yozadi. Bu umumiy fikrni shakllantirishda qoʻshilgan hissani koʻrinarli darajada koʻrsatib turadi va oʻqituvchiga tushunishga va har birining ishtirokini qayd qilishga yordam beradi.

Oʻfzaki “Davra suhbatl” – bu birgalikda oʻqitish metodi boʻlib, oldingisiga oʻxshaydi, faqat u oʻfzaki shaklda oʻtkaziladi. Har bir ishtirokchi navbati bilan oldingi odam aytgan fikrni ilfab oladi va rivojlantiradi.

**YOzma “Davra suhbatl”
(Har kim yozadi va varaqni chap tomondagi qoʻshnisiga uzatadi)**



Ofzaki “Davra suhbatı”

(Har kim o’z fikrini aytadi va so’zni chap tomondagi qo’shnisiga beradi)


Pedagogik fanlarni o’qitishda innovacion ta’lim texnologiyalardan foydalanish

Reja:

1. Innovacion ta’lim texnologiyalari tushunchasi.
2. Muammoli ta’lim texnologiyasi.
3. SHaxsga yo’naltirilgan ta’lim texnologiyasi.
4. Fanni to’liq o’zlashatirishga yo’naltirilgan texnologiyalar.
5. Modulli ta’lim texnologiyasi.

ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯ

таркиби ва мазмуни



1-rasm. «Pedagogik texnologiya» ning blok-sxemasi

Pedagogik fanlarni o'qitish jarayonida hamkorlik pedagogikasi imkoniyatlaridan foydalanish yo'llari

Pedagogik fanlarni o'qitish jarayonida hamkorlik pedagogikasi imkoniyatlaridan foydalanish maqsadida biz 1-Toshkent pedagogika kolleji va Toshkent viloyat pedagogika kollejlari pedagogik tajriba-sinov ishlarini amalga oshirdik. «Pedagogika» fani mavzularini hamkorlik pedagogikasi shakl, metod va usullari yordamida amalga oshirishga harakat qildik. Quyida ana shu darslarimizdan misollar keltiramiz.

Ma'lumki o'quvchilarning tanlovi o'z navbatida, eng avvalo, ularning shaxsiy tajribasi bilan shartlangan, biroq mazkur jarayonga avtoritar yondashuv ularda xohishni hosil qilmaydi. Ana shu sababli biz mashfulotlarni erkin tanlov asosida, o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda amalga oshirdik. Asosiysi e'tiborni amaliy faoliyatga undovchi hamkorlik pedagogikasi shakl, metod va vositalariga qaratdik.

«Shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlari» mavzusini o'qitish jarayonida shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar va shaxsning rivojlanishiga doir konsepsiyalarni tahlil qilish vazifasi topshirildi.

Topshiriqni bajarish jarayonida, o'quvchilar shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil eta olishdilar, biroq shaxs rivojlanishiga doir konsepsiyalarga aniqlik kirita olmadilar (chunki shaxs rivojlanishiga doir konsepsiyalar haqida bilimlari etarli emas). Ana shundan so'ng o'qituvchi doskaga bir nechta konsepsiyalarni yozdi va o'quvchilarga ular haqida o'z fikrlarini bildirishni so'radi. O'quvchilar pragmatizm, bixeviorizm kabi

konceptiyalarga ularning nomlanishidan kelib chiqib taʼrif berishdi. Oʻqituvchi ularning fikrlarini eʼshitib boʻlgach, har bir konceptiyaning mohiyatini ochib beruvchi bittadan misol keltirdi va oʻquvchilardan ular qaysi konceptiya mohiyatini aks ettirishini soʻradi. Ana shu tarzda oʻquvchilar shaxs rivojlanishiga doir konceptiyalar haqidagi maʼlumotni etarli darajada oʻzlashtirish va mashʼulotdan qoniqish hissiga ega boʻlishdi.

«YAgona pedagogik jarayon» mavzusiga doir «Taʼlim va tarbiya jarayonining mohiyati» muammosini muhokama etishda oʻquvchilarga rivojlanish va tarbiya jarayonlarining oʻzaro munosabatini turlicha tushuntiradigan xilma-xil pedagogik nazariyalarga tavsif berish taklif etildi. Qoidaga muvofiq, kim uchundir mustaqil inson timsoli maʼqul, unga soʻqiumda tanish boʻlgan pedagogik madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tarbiyada avtoritar yondashuvga afzal deb qaraladi. Buni esa quyidagicha tushuntirishdi: ularga muloqotning bunday shakli maqul emas, biroq ularning fikricha, tarbiya jarayonini tashkil etishga boshqa yondashuvlar samarasiz boʻlishi mumkin.

Oʻqituvchi «Dars maktabda taʼlimni tashkil etishning asosiy shakli» mavzusiga tegishli dars arafasida bir soatlik darsning texnologik kartasini tuzishni topshirdi. Oʻqituvchi oldindan ishlab chiqilgan texnologik karta darsni samarali oshirishga yordam berishini izohlab, uy vazifasining amaliy ahamiyatini koʻrsatdi.

Etasi kuni dars suhbat bilan boshlandi. Oʻquvchilar turli mavzularga doir tuzgan texnologik kartalarini misol qilib keltirishdi, biroq «kutiladigan natija»ni toʻgʻri qoʻya olmaganliklari maʼlum boʻladi. Muammoli vaziyat hamda amaliy ahamiyatga (oʻquvchilar uchun) ega boʻlgan muammoni hal qilish yoʻlini topish ehtiyoji tufildi. Oʻqituvchi bu haqda avval oʻquvchilarning oʻzlaridan fikr bildirishlarini soʻradi: Nega oʻquvchilar dars texnologik xaritasining «kutiladigan natijalar» qismini qoʻya olishmadi? Bu holatda biror didaktik xatolik mavjudmi?

Oʻquvchilarning baʼzilari ular bu mavzu bilan toʻliq tanishmaslaridan turib, ularga uy vazifasi qilib berilganligi uchun shunday boʻldi, deb izohlasa, baʼzilari maqsadni toʻgʻri qoʻya olishmagani bilan izohlashdi. YAna bir guruh oʻquvchilar esa, oʻqituvchining oʻzi mashʼulotni toʻgʻri loyihalamaganligi, «kutiladigan natijalarni» toʻgʻri aniqlay olmaganligini taʼkidlashdi. Oʻqituvchining eʼtiborini uchinchi javobga mansub oʻquvchilarning fikrlari tortdi. CHunki u aynan vazifani berayotgan vaqtda oʻquvchilarda kelgusi mashʼulotda darsning «kutiladigan natijalari»ga asoslanib, darsning maqsad va vazifalarini belgilanishini oʻrgatishni maqsad qilib qoʻygan edi.

«Taʼlim metodlari» mavzusini oʻtishdan oldin oʻqituvchi oʻquvchilar bilan dars vaqtida oʻquvchilarga quyidagi topshiriq bilan murojaat qildi: oʻqituvchi kuni uzaytirilgan guruhda oʻquvchilarda xatosiz yozish koʻnikmasini hosil qilmoqchi edi. Oʻqituvchi qay tarzda oʻquvchilarni xatosiz yozishga oʻrgatishi mumkin?

Oʻquvchilar turlicha javoblar berishdi: kimdir luʼfat bilan ishlashga oʻrgatish orqali, kimdir esa soʻzlarni toʻgʻri talaffuz etish orqali, yana kimdir esa, doskaga yozdirish orqali amalga oshirish mumkinligini aytib oʻtishdi. SHundan soʻng oʻqituvchi oʻquvchilarga boshlanfich sinf oʻquvchilari tomonidan yozilgan

matni tarqatib chiqdi va matni tekshirib, xatolarini aniqlashni so'radi. O'quvchilar matni tekshirib chiqishdi va xatolarni aniqlaganliklarini, ularni bartaraf etish yo'llarini yozma bayon etganliklarini ma'lum qilishdi. SHundan so'ng, o'qituvchi proektor orqali pedagogika kolleji o'quvchilariga tarqatilgan matn diktant tarzida tushirilgan dars tasviri mavjud lavhani namoyish etdi. Unda boshlanfich sinf o'qituvchisining o'quvchilardan diktant olish holati tasvirlangan edi. O'qituvchi lavhani tugatgach, o'quvchilardan o'qituvchining diktant olish jarayoniga baho berishlarini so'radi. O'quvchilar o'z fikrlarini bildirishdi: juda sekin aytdi, juda tez aytdi, o'zi ham so'zlarni to'fri talaffuz qilmadi va hokazo. O'quvchilar o'qituvchining diktant aytishi bilan o'zlarining oldilarida turgan yozilgan matni solishtirib borishdi. O'quvchilar tomonidan nega mazkur xatolarga yo'l qo'yilganligi haqida o'z munosabatlarini bildirishdi. Munozaralar tugagach, o'qituvchi o'quvchilarga hozirgi mashfulotda o'qituvchi qanday yo'llar orqali ular bilan birgalikda ishlaganligini so'radi. O'quvchilar esa, quyidagicha javob berishdi: ofzaki, amaliy, munozara, savol-javob, ko'rgazmali, namoyishli va hakozolar. O'qituvchi ularning javoblari asosida ta'lim metodlari mavzusiga yana-da, oydinlik kiritdi. Bunday hamkorlik asosida o'quvchilar mashfulotni ongli va mustahkam o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

O'qituvchi «Ta'lim jarayoni» mavzusini o'tayotganda, o'quvchilarga quyidagi topshiriqni berdi: Ahmad kuni uzaytirilgan guruhda mehnat mashfulotida yaxshi ishtirok etmaydi. Undan bu haqida so'ralgan-da, «mehnat mashfulotini yoqtirmayman. CHunki unda parashyut yasash haqida hech narsa yo'q», deb javob berdi. Keling, siz bilan ham avval ana shu parashyut yasash mashfulotini amalga oshiramiz. O'qituvchi doskaga parashyut modeli tushirilgan lavhani namoyish etdi.

Qofozdan parashyut modelini yasash dastlab parashyutni yasash nimadan boshlanishi kerakligi haqidagi savolni o'quvchilarga berish orqali boshlanishi lozim:

O'qituvchi: biz nimadan boshlaymiz?

Anora: gumbazini yasashdan.

O'qituvchi: Biz ishni nimani qilishdan boshlaymiz?

Gulyora: Biz to'rtta kichkina qofozlarni qirqib olishimiz va kattasiga kleylashimiz kerak.

O'qituvchi: Buni nimadan boshlash kerak?

SHerzod: Qofoz olish va keraksiz qismlarini kesib tashlash kerak.

Sevara: Kvadrat hosil qilish kerak.

O'qituvchi: Mana bu to'fri.

O'qituvchi: Keyin biz nima qilishimiz kerak bo'ladi?

Tamara: Uchburchakli kvadrat hosil qilish kerak.

O'qituvchi: Bu chiziqlar qanday ataladi?

Anora: Diagonallar.

O'qituvchi: Dioganallar qanday hosil qilinadi?

Anora: Burchaklarni hosil qilish kerak.

O'qituvchi: Qanday burchaklarni?

Anora: Qarama-qarshi tomonli.

O'qituvchi: YAxshi so'ng nima qilamiz?

Sarvara: Ipchaga kleylash uchun uchun biz qo'fozdan kichkina kvadratlar qirqib olishimiz lozim.

O'qituvchi: Strop(arqon)ga diqqat bilan qarang. Nimani ko'ryapsiz?

Ziyovuddin: To'rtala ham teng.

Sarvara: Strop(arqon)ning uzunligi gumbazzning bo'yidan to'rt marta uzun.

O'qituvchi: Barakalla, Sarvara! YAxshi e'tibor qaratding. Dastlab biz ipning uzunligi taxminan aniqlaymiz, so'ngra biz yukni ortganimizda tenglashtiramiz. Biz kvadratlarni strop(arqon) uchun qanday qilib, qaysi tomondan kleylaymiz?

Nigora: Ichidan.....

Iroda: Parashyut yuqori qirrali bo'lishi kerak. Qo'fozlarni esa biz tashqaridan kleylaymiz.

O'qituvchi: Strop(arqon)ni kleylayotganda yana nimani esda saqlash kerak?

Iroda: Strop(arqon)lar kley yordamida qo'foz kvadratlar bilan yopishtiriladi.

O'qituvchi: Ular qanday qilib kleylanadi?

Kamola: To'rt burchakda. Burchaklar gumbaz bilan mos kelishi uchun.

O'qituvchi: burchaklar gumbaz bilan mos kelishi uchun arqonlar qaysi tomondan qo'yiladi?

Bobur: Hammasi bir tarzda pastdan, qirra tomondan.

Anora: Burchakka, dioganallar tutashgan joyga.

O'qituvchi: So'ngra nima qilinadi?

Mahmuda: Arqonlarni pastga bo'laymiz va yukni qo'yamiz.

O'qituvchi: Birdaniga yukni qo'yamizmi?

Mahmuda: Yo'q, kley qotishi uchun bir oz kutish kerak bo'ladi.

O'qituvchi vazifani tugatgach, o'quvchilardan hozirgi vaziyatdan kelib chiqqan holda, «ta'lim jarayoni»ga qanday baxo bergan bo'lardingiz? O'quvchining qiziqishi va ehtiyojlarini hisobga olish ta'lim jarayoni uchun xarakterlimi? kabi savollar bilan murojaat etdi va mash'ulotni davom ettirishdi.

Biz pedagogik tajriba-sinov ishlari davomida fakul'tativ mash'ulotlar jarayonida ma'ruza-munozara, seminar-illyustatsiya, seminar-reflektsiya shakllaridan ham samarali foydalandik.

Seminar-illyustratsiya. «Badiiy pedagogika»ning pedagogik merosni o'rganishda tutgan o'rnini. (Amir Temur haqidagi badiiy asarlarni o'rganish misolida)

Seminarni o'tkazish oldidan o'tkaziladigan topshiriq: Amir Temur haqidagi bir nechta tarixiy-badiiy adabiyotlar bilan tanishish.

Seminarning boshida bajariladigan topshiriq: o'qib-o'rganilganlari asosida o'qiganlari va o'z fikrlariga tayanib, Amir Temur shaxsida namoyon bo'lgan sifatlarni namoyish etish.

Amir Temurning axloqiy tamoyillari:

- axloqiy sifatlarni asosida befarazlik bo'lishi lozim;

- diniy aqidalarga so'zsiz rioya qilish, odamlarni hurmat qilish, Allohning irodasiga buysunish;

- har doim beva-bevocharalar foydasi uchun ko'plab xayr-ehsonlar qilish zarur, har bir nizoni diqqat bilan o'rganish va imkoni boricha ijobiy hal etish kerak;

- barcha faoliyatni umum manfaati va foydasiga yo'naltirish. Bunda sababsiz hech kimni xafa qilmaslik, kim sendan yordam so'rab kelsa, keragicha yordam ko'rsata olish.

- diniy masalalarni kundalik, hayotiy va dunyoviy ishlardan yuqori qo'yish;

- adolatlilikni mustahkam tutmoq;

- agar, vaʼda qilinganini bajara olmasang, vaʼda bermaslik;

- sababsiz hech kimga yomonlik qilmaslik;

- o'zini Allohning xizmatkori va quli hisoblash;

- bir xil, oddiy va aholining yuqori qatlami bo'lishga intilish;

- hech qachon birovga hasad qilmaslik.

SHaxs va davlat arbobi tarzidagi Amir Temurning sifatlari:

- adolatlilik (kuch – adolatda);

- insoniy va ishchanlik sifatlariga qarab odamlarni baholash;

- boshqa fikrlar bilan ham hisoblashish;

- davlat masalalarni kengash tuzib hal etish;

- mavjud tarixiy shart-sharoit asosida voqea va hodisalarni baholash;

- ziddiyatlarni tinch yo'l bilan hal etish;

- islom foyalariga amal qilish;

- Qurʼonni yaxshi bilish va unga tez-tez murojaat qilish;

- muqaddas amallarni hurmat qilish;

- maʼnaviyat va madaniyatning ahamiyatini tushunish va har tomonlama

qo'llab-quvvatlash;

- qonunlarga qattiq rioya qilish.

Seminar-refleksiya (suhbat-muhokama).

SHaxsdagi bunday sifatlarga mening munosabatim.

Nomi sanab o'tilgan sifatlardan men o'zimdagi qaysilarini eʼgallaganman?

Men qanday sifatni o'zimdagi tarbiyalagan bo'lardim?

«**Intellektuallar kechasi**» **seminari** talabalarning adabiy-badiiy asarlardagi matnlar bilan ishlashi asosida o'tkazilishi bilan farqlanadi. Seminarga ikki hafta tayyorgarlik ko'rildi va ikki xil variantda o'tkazildi – dastlabki topshiriq: a) bir necha talabalar; b) talabalar guruhiga berildi. Har bir o'quvchi (yoki guruh) Amir Temur haqidagi quyidagi asarlardan biri bilan tanishishi zarur edi: Odil YOqubovning «Uluʼbek xazinasini»; B.A. Ahmedovning «Amir Temur», Abdulla Oripovning «Sohibqiron Amir Temur».

Seminar buyicha so'zga chiqishda quyidagi tamoyillarga rioya qilindi:

1. O'qiganlarini bayon etish;

2. SHaxsiy fikrini aytib berish.

3. Erkin fikr almashish «Men bu haqida qanday yozdim?»

4. Barcha aytilganlarini umumlashtirish, ko'rib o'tilgan savollarni yaxlit tizimga keltirish.

«Muzeý pedagogikasi» seminar-dialog. Seminar oldidan o'quvchilar(26 nafar)ga quyidagicha topshiriq berildi: 2-3 kishidan bo'linib, biror muzeýga tashrif buyurish va ular tarixi va ekspozitsiya mazmunining tarbiyaviy ahamiyati haqida qisqacha tushuntirishli annotatsiya tuzish.

Seminar jarayonida har bir guruh qisqacha axborot berishdi va quyidagi topshiriqlarni bajarishdi: 1) o'z taassurotlarini bayon etish; 2) hammasidan ko'proq nima ma'qul bo'lganligini bildirish; 3) yangi nimani o'zlashtirishganligini aytish; 4) nima ma'qul kelmaganligi(muzeýning jihozlanishi, mazmuni, muzeý xodimlarining odobi, uning tarkibiy qismlarining zamonaviylik bilan aloqadorligi bo'yicha)ni izohlash.

Butun guruhlar uchun yakuniy topshiriq sifatida olingan ma'lumotlar asosida muzeýlarning tarbiyaviy ahamiyati modelini yaratish topshirigi berildi: muzeýlarning yo'nalganligi, tarbiya sohalari bilan aloqadorligi, o'lka tarixi va madaniyati bilan bog'liqligi va boshqalar baholandi.

Umuman olganda, ta'lim jarayoniga bunday yondashuv pedagogik fanlarni o'qitish jarayonida hamkorlik pedagogikasi imkoniyatlaridan keng foydalanish mumkinligi haqidagi farazlarimizga mos keladi.

II BOB. PEDAGOGIK FANLARNI O'QITISHDA TA'LIMNING FANGA YO'NALTIRILGAN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Ta'limning fanga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanish texnologik hujjatlar asosida amalga oshiriladi, bu hujjatlarning asosiy tarkibiy qismi esa texnologik xaritalar hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya doirasida ta'limning fanga yo'naltirilgan texnologiyalaridan foydalanish uchun pedagogik-texnologik xaritalar ishlab chiqiladi. Uning asosida o'qitish jarayonini bir necha marta tashkil etish mumkin, ya'ni qayta takrorlanadigan o'qitish ciklini ro'yobga chiqarish mumkin. Pedagogik texnologik xaritalar, pedagogik texnologiyani ko'p nusxada ko'paytirishga va o'quv yurtining qaerda joylashganligidan qat'iy nazar ko'zlangan o'qitish natijalariga erishishga imkoniyat yaratadi. Pedagogik texnologik xaritalarning shakli va mazmuni – jadvalda keltirilgan.

Pedagogik texnologik xarita har bir mavzu modul uchun alohida tuziladi. Ularning majmuasi pedagogik texnologik xaritalar albomini tashkil etadi.

Pedagogik fanlarni o'qitishda ta'limning fanga yo'naltirilgan texnologiyalaridan foydalanish uchun qayta takrorlanadigan o'qitish ciklidan foydalanish mumkin.

Qayta takrorlanadigan o'qitish cikli quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi (5-rasm):

1. O'quv fanining umumiy maqsadini o'rnatish. O'quv rejadagi har bir fan mutaxassisning shakllanishi uchun ma'lum bir maqsadga ega. Bu maqsad aniq ifodalanishi va fanni o'rganishdan oldin har bir talabaga etkazilgan bo'lishi kerak.

2. Har bir mavzuni o'zlashtirishi uning o'rganishdagi o'quv maqsadini to'g'ri qo'yilishiga bog'liq. O'quv fanini to'la o'rganishdagi mavzuning ahamiyati o'quv maqsadi toifasini belgilaydi.

Dars boshlanishida o'quv maqsadi, uning boshqa mavzular bilan, mutaxassisning kelajakdagi amaliy faoliyati bilan borliqligi talabalarga etkaziladigan bo'lishi kerak.

3. Har bir mavzu (bo'lim va modul) bo'yicha tayanch iboralarni aniqlash (1-jadval). Pedagogik texnologiyada o'qitishning moduli tizimini qo'llash samaralidir, u fanning bir yoki bir necha fundamental tayanch iboralarni qamrab olgan axborotning tugallangan bloklariga tayanadi.

1- jadval

B.Blum taksonomiyasi asosida «Pedagogika» fani bo'yicha o'quv maqsadlarning toifasini belgilash.

| № | Mavzular nomi (bo'lim va modullar) | Tayanch iboralar | O'quv maqsadining toifalari | | | | | | |
|----------|------------------------------------|--|-----------------------------|------------------|-----------------|---------------|---------------|-----------------|---|
| | | | <i>Bilish</i> | <i>Tushunish</i> | <i>Qo'llash</i> | <i>Analiz</i> | <i>sintez</i> | <i>Baholash</i> | |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | |
| 1. | Pedagogikaning umumiy asoslari | 1.1 Kadrlar tayyorlash milliy modeli | * | * | | | | | |
| | | 1.2 Pedagogik faoliyat | * | * | | | | | |
| | | 1.3 Pedagogik kasbiga qo'yiladigan talablar | * | * | * | * | * | * | * |
| | | 1.4 Pedagogika | * | * | | | | | |
| | | 1.5 Pedagogik faoliyat | * | * | | | | | |
| | | 1.6 Ta'lim, tarbiya, ma'lumot | * | * | * | * | * | | |
| | | 1.7 Ilmiy-tadqiqot metodlari | * | * | * | * | * | * | * |
| | | 1.8 SHaxs | * | * | | | | | |
| | | 1.9 SHaxsning o'sishi va rivojlanishi | * | * | | | | | |
| | | 1.10 SHaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar | * | * | * | * | * | * | * |
| 2. | Ta'lim nazariyasi | 2.1 Didaktika | * | * | | | | | |
| | | 2.2 Ta'lim jarayoni | * | * | * | | | | |
| | | 2.3. Ta'lim qonuniyatlari | * | * | * | * | * | | |
| | | 2.4. Ta'lim tamoyillari | * | * | * | * | * | | |
| | | 2.5 Bilim, ko'nikma va malaka | * | * | * | * | * | * | * |
| | | 2.6 Ta'lim mazmuni | * | * | * | | | | |
| | | 2.7 DTS | * | * | * | * | * | | |
| | | 2.8 O'quv rejasi | * | * | * | * | * | * | * |

| | | | | | | | | |
|------------------------|---|--------------------------------|---|---|---|---|---|---|
| | | 2.9 O'quv dasturi | * | * | * | * | * | * |
| | | 2.10 Ta'lim metodlari | * | * | * | * | * | * |
| | | 2.11 O'g'zaki metodlar | * | * | * | * | * | * |
| | | 2.12 Ko'rgazmali metodlar | * | * | * | * | * | * |
| | | 2.13 Amaliy metodlar | * | * | * | * | * | * |
| | | 2.14 Ta'lim shakllari | * | * | * | * | * | * |
| | | 2.15 Individual | * | * | * | * | * | * |
| | | 2.16 Sinf-dars | * | * | * | * | * | * |
| | | 2.17 Ma'ruza-seminar | * | * | * | * | * | * |
| | | 2.18 Tashxis | * | * | | | | |
| | | 2.19 Nazorat | * | * | * | | | |
| | | 2.20 Tekshirish | * | * | * | | | |
| | | 2.21 Baholash | * | * | * | * | * | * |
| | | 2.22 Nazorat turlari | * | * | * | * | * | * |
| 2.23 Nazorat shakllari | * | * | * | * | * | * | | |
| 2.24 Nazorat metodlari | * | * | * | * | * | * | | |
| 3. | Tarbiya nazariyasi | 3.1 Tarbiya | * | * | * | | | |
| | | 3.2 Tarbiya maqsadi | * | * | * | | | |
| | | 3.3 Tarbiya jarayoni | * | * | * | * | * | * |
| | | 3.4 Tarbiya mazmuni | * | * | * | * | * | * |
| | | 3.5 Tarbiya mohiyati | * | * | * | * | * | * |
| | | 3.6 Tarbiya qonuniyatlari | * | * | * | * | * | * |
| | | 3.7 Tarbiya tamoyillari | * | * | * | * | * | * |
| | | 3.8 Tarbiya metodlari | * | * | * | * | * | * |
| | | 3.9 Tarbiya turlari | * | * | * | * | * | * |
| 4. | O'zbekiston Respublikami xalq ta'limi va ta'lim tizimini boshqarish | 4.1 Ta'lim tizimi | * | * | | | | |
| | | 4.2. Ta'lim turlari | * | * | | | | |
| | | 4.3. Xalq ta'limi | * | * | | * | * | |
| | | 4.4 Maktabgacha ta'lim | * | * | | * | * | |
| | | 4.5 Umumiy o'rta ta'lim | * | * | | * | * | |
| | | 4.6 Ta'lim tizimini boshqarish | * | * | * | | | |
| | | 4.7 Boshqarish tamoyillari | * | * | * | * | * | * |
| | | 4.8 Boshqarish metodlari | * | * | * | * | * | * |

4. Har bir tayanch iboraning o'quv maqsadini B.Blum pedagogik taksonomiyasi (2-jadval) asosida belgilash. Bu bosqich, pedagogik texnologiyada qayta takrorlanadigan o'qitish cikli uchun eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi.

Fanning u yoki bu tushunchasini o'rganish darajasi, u fanni ta'limning mazkur yo'nalishi uchun ahamiyati orqali aniqlanadi. Ta'lim yo'nalishiga ko'ra, bir tushunchaning o'zi turli o'quv toifalariga kirishi mumkin. Ta'limning bir yo'nalishi uchun bu masalan – bilish bo'lsa, ikkinchi yo'nalish uchun qo'llash bo'lishi mumkin va h.k.

Barcha tayanch iboralar o'quv maqsadlarining yifindisi, shu fanning o'quv maqsadlari katalogini tashkil etadi.

2-jadval

**Tayanch iboralarning o'quv maqsadlarini, B.Blum pedagogik taksonomiyasi
bo'yicha belgilash
(«Pedagogika» fani misolida)**

| t/s p | Tayanch iboralar | O'quv maqsadlari toifasi | O'quv maqsadlari |
|----------|--------------------------------------|--------------------------------|---|
| 1. | Kadrlar tayyorlash modeli | Bilish | Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlarini bilish |
| 2. | Pedagogika | Tushunish | «Pedagogika» iborasi mohiyatini tushuntirish |
| 3. | Pedagogikaning asosiy kategoriyalari | Bilish | Pedagogikaning asosiy kategoriyalarini bilish |
| 4. | SHaxs | Tushuntirish | SHaxs tushunchasining mohiyatini tushuntirish |
| 5. | Taʼlim jarayoni | Bilish | Taʼlim jarayoni tuzilishini bilish |
| 6. | Taʼlim qonuniyatlari | Tahlil | Taʼlim qonuniyatlarini tahlil etish |
| 7. | Taʼlim tamoyillari | Tahlil | Taʼlim tamoyillarini tahlil etish |
| 8. | Taʼlim mazumuni | Tahlil | DTS, o'quv reja, o'quv dasturlarini tahlil etish |
| 9. | Taʼlim metodlari | Qo'llash | Taʼlim metodlaridan foydalanish |
| 10. | Taʼlimni tashkil etish shakllari | Qo'llash | Dars ishlanmasini tuzish |
| 11. | Taʼlim olganlikni tashhis etish | Baholash | Nazorat metodlarining samaradorligini baholash |

5. Har qaysi tayanch ibora, modullar uchun diagnostik testlar ishlab chiqish. Bu testlar talabalarining bilim olishini tashxislash maqsadida, joriy nazorat uchun ishlatiladi. Bilimlarning o'zlashtirilish darajasiga ko'ra, har bir tayanch ibora uchun testlar tuziladi.

6. O'qitish. YAngi o'quv materialini bayon etish va uni ishlab chiqish, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari asosida amalga oshirish tavsiya etiladi. Butun o'quv faoliyati, aniq va ravshan ifoda qilingan o'quv maqsadlari asosida quriladi.

O'quv maqsadi toifasiga ko'ra, o'quv materialining birligi, tarkibi, turli xil bo'lishi mumkin.

7. Test o'tkazish. Joriy test diagnostik xarakterga ega bo'lib teskari aloqa vazifasini o'taydi, Uni o'tkazishdan asosiy maqsad tuzatishlar va qo'shimcha o'quv tadbirlar zaruriyatini aniqlashdan iboratdir.

8. O'quv maqsadlariga erishilganligini baholash. U joriy test sinovlari asosida amalga oshiriladi. Test sinovlari natijasiga ko'ra talabalar guruhi ikkiga bo'linadi:

- ♦ Bilim va ko'nikmalarni to'la o'zlashtirishga erishganlar.
- ♦ Bilim va ko'nikmalarni to'la o'zlashtirishga erishmaganlar.

O'quv materialini to'la o'zlashtirmagan o'quvchilar, o'qituvchi rahbarligida shu materialni o'rganishni davom etadilar. Ular bilan qo'shimcha (tuzatish) o'quv

ishlari tashkil etiladi. Testlar natijalari asosida, yo'l qo'yilgan kamchiliklar aniqlanadi. Kamchiliklarni tuzatish uchun o'quv materialini o'zlashtirmagan talabalarning guruhi bilan mashqulotlar olib boriladi. Materialni takroriy bayon qilishda boshqa yangi usullardan foydalanish lozim: birinchi marta ishlatilmagan ko'rgazma qurollar va o'qitishning texnik vositalarini ishlatish, individual ishlardan foydalanish zarur. SHu yo'llar bilan o'quv materialining to'la o'zlashtirilishiga erishish lozim.

Bilimlarni to'la o'zlashtirilishini ta'minlash muammosida alohida masala bo'lib, o'qitish sur'atlari turadi. Aynan shu bilan o'quvchining qobiliyati aniqlanadi. Iqtidorli o'quvchilar uchun (ular taxminan 5 % ni tashkil etadi) o'quv materialini o'zlashtirish uchun eng kam vaqt, «o'rtacha» o'quvchilar uchun ulardan ko'ra ko'proq vaqt, «bo'sh» o'quvchilar uchun eng ko'p vaqt zarur bo'ladi. Tabaqalashtirilgan o'qitish texnologiyalariga o'tish dolzarbligi shu bilan asoslanadi. Bunda har bir o'quvchi o'quv materialini davlat ta'lim standartlari talablari darajasida, o'zining tabiiy qobiliyatlari darajasida o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Iqtidorli o'quvchilarda chuqurlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni egallashga imkoniyat paydo bo'ladi.

Mavzu (modul) bo'yicha o'quv materialini guruhning barcha o'quvchilari tomonidan o'zlashtirilganidan so'ng, keyingi mavzu (modul)ga o'tiladi, ya'ni o'quv jarayoni o'rgatuvchi cikl shakliga ega bo'ladi. O'qitishning modul tizimida, o'rgatuvchi cikllar soni, o'quv fanining modullari soniga teng bo'ladi.

Pedagogika fanini o'qitish jarayonida muammoli o'qitish texnologiyalaridan foydalanish yo'llari

Muammoli o'qitish, ijodiy jarayondan nostandart ilmiy-o'quv masalalarni nostandart usullar bilan echishni taqozo etadi. O'quvchilarga mashq uchun beriladigan masalalar, olingan bilimlarni mustahkamlash va malakalar hosil qilish uchun xizmat qilsa, muammoli masalalar esa faqat yangi echimlar izlashga qaratiladi.

O'quv materialini muammoli taqdim etilishining mohiyati shundaki, unda o'qituvchi bilimlarni tayyor holda taqdim etmasdan, o'quvchilar oldiga muammoli masalalar qo'yadi, ularni echimining yo'llari va vositalarini izlashga undaydi. Muammo, yangi bilimlar va harakat usullar sari, o'zi yo'lga boshlaydi.

SHuni qat'iyatlik bilan ta'kidlash lozimki, bu erda yangi bilimlar ma'lumot uchun emas, balki muammo yoki muammolarni echimi uchun beriladi. An'anaviy pedagogik usuldagi – bilimlardan muammoga qarab – o'quvchilar mustaqil ilmiy izlanish ko'nikma va malakalarini hosil qila olmaydi, chunki ularga o'zlashtirish uchun tayyor natijalar taqdim etiladi. Muammoning echimi ijodiy fikrlashni taqozo etadi. O'zlashtirilgan bilimlar shablonlarini takrorlash bilan bo'liq bo'lgan reproduktiv psixik jarayonlar, muammoli vaziyatlarda hech qanday samara bermaydi.

Muammoli ta'limning asosini muammoli savol, topshiriq, muammoli vaziyat tashkil etadi. M.I. Maxmutovning fikricha, o'qituvchilarda intellektual qiyinchiliklar tufdiradigan savollargina muammoli sanaladi, chunki ularning javobi

o'quvchilarning ilgarigi bilimlarida ham, o'qituvchi tomonidan berilgan axborotda ham bo'lmaydi¹.

Qanday sharoitlarda savollar muammoli bo'lib hisoblanadi? Bu ta'lim jarayonini tashkil qilishdagi eng murakkab jihatlardan biridir. Axir har qanday savol va har qanday ifoda ham muammoli bo'lavermaydi-ku. Bularning barchasi o'qituvchining mahoratiga bo'liq.

O'qituvchi mazkur guruh o'quvchilariga hech qachon javob bera olmaydigan savolni berishi ham mumkin. Masalan, pedagogika kollejarining 1-kurs o'quvchilariga «Ta'lim muassasasi menejmentining mohiyati nimada?» - degan savol beriladi. Bunga o'quvchining javob berishi u yoqda tursin, menejmentning o'zi nima ekanligini bilishga kuchi etmaydi. Kollejni bitiruvchi o'quvchi esa har ikkala tushunchaning mohiyatini hech qanday qiyinchiliksiz tushuntirib beradi.

Birinchi holda ham, ikkinchi holda ham savol muammoli emas, birinchi holda muammoli emasligining sababi, unda o'quvchilarni muammoga olib boruvchi savolda so'ralayotganiga tayanch ta'lim yo'q. Ikkinchi holda shuning uchun ham muammoli emas, unda o'quvchilar bu mammoni allaqachon hal qilganlar, ya'ni ular buning hal qilish yo'lini biladilar.

SHunday qilib, savol quyidagi holatlarda muammoli bo'ladi: u ilgari o'zlashtirilgan tushuncha va tasavvurlar bilan, ma'lum o'quv vaziyatida o'zlashtirish zarur bo'lgan tushuncha va tasavvurlar bilan mantiqiy bo'langan bo'lishi;

o'zida bilish qiyinchiligi hamda ma'lum va noma'lumning aniq chegarasi mavjud bo'lishi;

yangini ilgari ma'lum bo'lgan bilimlar bilan taqqoslaganda mavjud zahira bilim, ko'nikma va malakaga qanoatlanmaslik hissini uyqotish. Masalaning ayniqsa bu tomoni juda muhim, chunki u bilish qiyinchi-liklarini qiziquvchanlik va emotional idrok bilan bo'laydi.

Bilishga oid masalalarda ham xuddi shunday yondashuv mavjud, ya'ni har qanday masala ham muammoli hisoblanmaydi. Agar bilishga oid masalalar o'quvchilar uchun yangi tushunchalarni, faktlarni, harakat usullarini o'z ichiga olsa, bu masala mazmunan muammolidir.

Masalan, Sergeli tumanida 268-maktabning biologiya fani o'qituvchisi «Ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari» bo'lganligi uchun darslarni ham vaqtida o'ta olmas edi. Darslarni o'tgan vaqtida ham o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini nazorat qilib bormasdi. O'quv yilning birinchi choragi tugab, o'quvchilar ta'tilga chiqishganida o'qituvchi ularning choraklik baholrini qo'yib qo'ygandi. II chorak boshlangach o'quvchilar sinf rahbarlaridan biologiya fanidan qo'yilgan baholarni eshitib hayratlanib qolishdi. CHunki baholar o'quvchilar tomonidan olinmagan edi.

1. O'qituvchi to'g'ri ish qilgan deb o'ylaysizmi?
2. O'qituvchi ta'lim olganlikni tashxislashning qaysi tamoyil-larini buzgan?

¹ Махмутов М.И. Мактабда проблемали таълимни ташкил қилиш. – Т.: Ўқитувчи, 1981. – 41 бет.

3. O'qituvchining o'quvchilarning o'quv faoliyatini bunday nazorat qilishi ularning bilim olishlariga salbiy taʼsir ko'rsatadimi?

Pedagogika fanini o'qitishda muammoli o'quv topshiriqlaridan foydalanish ham taʼlim samaradorligini oshiradi. Muammoli o'quv topshirigi – bu mazmunan o'quv muammosiga oid bo'lgan va yangi materialni mustaqil faoliyat yo'li bilan o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga mo'ljallanganidir. Pedagogika fanini o'qitishda ham bunday muammoli o'quv topshiriqlaridan Amaliy mashg'ulotlar jarayonida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, o'qituvchi «Taʼlimni tashkil etish shakllari va turlari» mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulotni amalga oshirayotgan vaqtda quyidagicha o'quv topshirigini beradi:

Quyidagi fikrlarni tegishliligiga qarab taʼlim turlari (namo-yishli-tushuntirish, muammoli, dasturlashgan)ga ajratib yozing.

- 1) asosiy metodlari: tushunish va əslab qolish;
- 2) bilimlarni mustakil əgallash, o'quvchilarning ijodiy fikr-lashlari va idrok etish faoliyatlarini rivojlantirish yo'li bilan taʼlim tashkil etiladi;
- 3) o'qishga qiziqishni uyʻotish, mahsuldor fikrlashini rivojlantirish;
- 4) o'quv materialining aloxida qismlarga ajratilishi;
- 5) darsning xar bir bosqichini nazorat bilan yakunlanishi;
- 6) individual yondashuvning amalga oshirilishi;
- 7) vaqtni tejash, o'qituvchi va o'quvchilarning kuchlarini asrash;
- 8) o'quvchilar idrok etish faoliyatining qiyinligi;
- 9) taʼlim jarayonini samarali boshqarishni taʼminlaydi;
- 10) «tayyor» bilimlarni beradi;
- 11) o'quv jarayonini individuallashtirish, tabaqalashtirish imko-niyatining kamligi;
- 12) turli vaziyatni yaratish va mustaqil echish imkoniyatining qiyinligi;
- 13) o'qitish algoritmlarini ajratishga asoslanishi;
- 14) uning texnologiyasi turli-tumanligi bilan ajralib turmaydi;
- 15) bunday o'qitish asosini kibernetik yondashish tashkil etadi.

Bundan tashqari pedagogika fanini o'qitishda muammoli taʼlim metodlaridan foydalanish mumkin: o'quv materialini muammoli bayon etish, qisman izlanish faoliyati, tadqiqot metodi.

o'quv materialini muammoli bayon etish – maʼruza mashg'ulotlarida monolog tarzda, seminar mashg'ulotlarida əsa dialog tarzda olib boriladi. O'qituvchi maʼruza paytida o'quv materialini bayon etayotganida muammoli masalalar tuzadi va ularni o'zi echadi, o'quvchilar əsa echimlarni izlash jarayoniga faqat xayolan qo'shiladilar. Masalan, «Taʼlim jarayoni» mavzusidagi maʼruzaning boshida «Hech o'ylab ko'rganmisiz, nega qarʻa 200-300 yil yashaydi, biroq uning bolaligi uch-to'rt oy davom etadi? Inson o'rtacha 60 yil umr ko'radi. Lekin uning bolaligi 20-25 yoshgacha davom etadi?» degan muammo qo'yiladi, ammo maʼruzachi tayyor javobni bermaydi, u fanning bu haqiqatga qanday etib kelgani, bu hodisa sabablari haqidagi farazlarni tekshirish bo'yicha o'tkazilgan tajribalar haqida hikoya qiladi.

Qisman izlanish faoliyati tajribalar laboratoriya ishlarini bajarishda muammoli seminarlar, əvristik suhbatlar davomida namoyon bo'ladi. O'qituvchi

muammoli savollar tizimini tuzadi, bu savollarga javoblar olingan bilimlar bazasiga tayanadi, ammo ular oldingi bilimlarda mavjud emas, ya'ni savollar talabalarga intellektual qiyinchiliklar tuqdiradi va maqsadga yo'naltirilgan ijodiy izlanishga undaydi. O'qituvchi imkoni boricha «boshqacha javoblar» yo'naltiruvchi savollarni tayyorlab qo'yishi lozim, u o'quvchilar javoblarigi tayanib, yakuniy xulosa qiladi. Qisman izlanish usuli 3 va 4-darajali mahsuldorlik faoliyatini (foydalanish, ijod) va bilimlarni 3 va 4-darajasini bilim-ko'nikma, bilim-transformatsiya(qayta shakllanish)ni ta'minlaydi. An'anaviy tushuntirish va reproduktiv o'qitishga esa, bilim-tanishi va bilim-nusxa shakllanadi, xolos.

O'rganishning tadqiqot metodi muammoli ta'limning umumiy metodlaridan biri sifatida o'qituvchi tomonidan asosan o'quvchilar oldiga yuqori darajada muammoli bo'lgan nazariy va amaliy tadqiqot topshiriqlari qo'yish yo'li bilan tashkil etiladi.

Tadqiqot xarakteridagi topshiriqlarning izlanishga doir topshiriqlardan farqi shundaki, birinchisida o'quvchilar yifilgna faktlar (tajriba, kuzatish, kitob ustida ishlash) va ularni nazariy jihatdan tahlil qilish, tizimlashtirish va umumlashtirish bo'yicha ish bajaradilar, kashfiyot va ixtirolar o'quvchilar tomonidan fakt materialarini tahlil qilish va umumlashtirish natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot metodida o'quvchi mustaqil ravishda mantiqiy operatsiyalarni bajarib, yangi tushunchalar hamda harakatning yangi usullari mohiyatini ochadi. O'quvchi mulohazalarining borishi, xulosalarining to'g'ri yoki noto'g'riligi o'qituvchi tomonidan o'quvchi bilan suhbat qilish jarayonida yoki uning tadqiqot natijasini o'zaki yoki yozma bayon qilganda aniqlanadi.

Pedagogika fanidan tadqiqot ishlari tashkil etish shakllariga ko'ra xilma-xil bo'lishi mumkin:

- o'quvchilar tajribasi;
- ilmiy tajribalarda ishtirok etish;
- ekskursiya va faktlar to'plash;
- arxivlarni o'rganish;
- aholi bilan suhbatlashish;
- ma'ruzalar tayyorlash va uni maktablarda o'qish;
- qo'shimcha adabiyotlarni o'rganish va hokazo.

Demak, tadqiqot metodi o'quvchilar mustaqil ravishda muammoni ifoda etadilar va uni echadilar (kurs yoki bitiruv ishlarida, ilmiy tadqiqot ishlarida) hamda o'qituvchi nazorati bilan yakunlanadi, bu esa 4-darajali mahsuldorlik faoliyatini (ijod) va 4-darajali eng samarali, mustahkam bilimni (bilim-qayta shakllanish) egallashni ta'minlaydi.

Umuman olganda, muammoli ta'lim pedagog va ta'lim oluvchilar uchun keng imkoniyatlar beradi. Bilimlarni shunchaki emas, ongli o'zlashtirish, o'quvchilarning bilishga qiziqish, ehtiyojlarni shakllantirishda muammoli ta'limning turli jihatlari (muammoli savol, topshiriq, vaziyatlarni hosil qilish, muammoli ta'lim metodlaridan foydalanish)ni qo'llash ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Pedagogik fanlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish

Reja:

1. Axborot texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llashning pedagogik-psixologik omillari.
2. Pedagogik fanlarni o'qitish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish yo'llari.

Adabiyotlar:

1. Aripov M.M., Imomov T.A. va boshqalar. Informatika. Axborot texnologiyalari. 1 -kiem. -Toshkent: O'zMU, 2002. -342 b.
2. Aripov M.M., Axmedov A.B. va boshkalar. Informatika. Axborot texnologiyalari. 2-qicm. -Toshkent: O'zMU, 2003. -426 b.
3. Hayitov A. F. Ta'lim jarayonini kompyuterashtirish va yangi pedagogik texnologiyaning uzviyligi. Ta'limda axborot texnologiyalari - Respublika ilmiy-amaliy konferençiyasi materiallari. -Toshkent: TDPU, 2000.
4. Internet yangiliklari. Nizomiy nomidagi TDPU Axborot texnologiyalari va masofaviy o'qitish markazi axborotnomasi. -Toshkent, 2002-2004 yillar, 1-24-sonlar.

5. Ashurov M.U. Kompyuterlashtirilgan didaktik o'yinlap//
Ma'rifat. 1999, 8 may, 4-6., 1999, 22 may, 2-6.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6 iyunda qabul qilgan «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'rtinchi»gi Qarori axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish, barcha sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va undan foydalanish, jahon axborot resurslaridan bahramand bo'lishni kengaytirishga zamin yaratadi. Fan va texnikaning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalarini axborotlashtirishga asos yaratdi. Mamlakatning iqtisodiyotdagi, insonlar hayoti va jahon hamjamiyatidagi o'rnini axborot-texnologik rivojlanishning holatiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanish holati birinchi navbatda jamiyatning intellektual salohiyatiga, jumladan, ta'lim sohasining rivojlanishiga bog'liq. Ta'lim mazmuni va sifati masalalari jamiyatda ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ta'limni axborotlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo'llari izlanmoqda, ta'limda yangi axborot texnologiyalarini joriy etish ta'lim sohasidagi islohotlarning diqqat markazidan o'rin olgan. Jahonda masofaviy o'qitish ochiq ta'lim tizimining muhim bo'linishi sifatida keng quloch yoymoqda.

Planetamiz sivilizatsiyasining axborot maydonida, jamiyatning har bir a'zosi, o'zining kundalik faoliyatida, uzluksiz ravishda axborotlardan foydalanadi. Doimiy ravishda ortib borayotgan axborotlar hajmi jamiyatdagi intellektual salohiyatning oshishiga xizmat qiladi. Jamiyatning har bir a'zosi hayotiy faoliyatining barcha sohalarida axborotlardan foydalanish axborot muhitining shakllanishiga asos bo'ladi. Zamonaviy axborot texnologiyalari muhiti, o'zida axborot ob'ektlarini, ularning o'zaro aloqasini, axborotlarni yaratish, tarqatish, qayta ishlash, to'plash texnologiyalari va vositalarini, shuningdek axborot jarayonlarining tashkiliy va huquqiy tarkibini mujassamlashtirgan bo'ladi.

XXI asr axborotlashtirish asrida ta'lim sohasini axborotlashtirish, har bir ta'lim muassasasida:

- o'qitish va o'qish jarayonining;
- ta'lim muassasasi boshqarilishining;
- ta'lim muassasasi bo'linmalarining;
- ta'lim muassasasi faoliyati muhitining axborotlashtirilishini talab qiladi.

Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarining jadal sur'atlar bilan joriy etilishi zamonaviy texnologiyalarning qo'llanish sohalarini kengaytiradi. Ayni paytda ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini rivojlanayotgan yo'nalishlarini alohida ta'kidlash mumkin. Ular:

1. O'quv maqsadlaridagi dasturiy vositalarning imkoniyatlarini o'qitish vositasi, o'rganish ob'ekti va axborotlarni qayta ishlash vositasi sifatida joriy etish.

2. O'quv-metodik majmualar yaratishda, o'quv-namoyish asboblari va kompyuter vositalari imkoniyatlarining integratsiyasi.

Bunday majmualardan foydalanish o'quvchiga o'rganilayotgan jarayon haqidagi axborotlarni jamlash, saqlash, jarayonlarning qonuniyatlarini mohiyatlarini ochib berishga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalar negizidagi o'quv-namoyish majmualarining qo'llanilishi individual va jamoaviy eksperiment faoliyatni tashkil etishga zamin yaratadi. Bu esa, o'quvchida intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish va mustaqil bilim olish imkoniyatini yaratadi.

3. Multimedial tizimlarini yaratishda, kompyuterlar va audio-video axborotlarni uzatish vositalari imkoniyatlarining integratsiyasiga erishish.

Bunday tizimlar o'zida dasturiy-apparat vositalar va asboblarni majmuasini mujassamlashtirib, axborotning turli (matn, grafika, ovoz, tasvir) ko'rinishlarini birlashtiradi va foydalanuvchi bilan interfaol muloqotni tashkil etadi. Multimedial tizimlaridan foydalanish, faol o'qitish metodlari va shakllarini joriy etishni ta'minlaydi, axborotlarning qabul qilinish darajasini oshiradi.

4. Sun'iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan intellektual o'qitish tizimlarini yaratishda foydalanish. Bunday o'qitish tizimlari mustaqil bilim olish jarayonini tashkil etish, mustaqil ravishda bilimlarni o'zlashtirish, o'quv faoliyatini intellektuallashtirishni rivojlantirishga zamin yaratadi. Bular barchasi o'quvchi shaxsini rivojlantirish jarayonini jadallashtiradi.

5. Global va lokal kompyuter tarmoqlari orqali axborot almashinuvini ta'minlovchi telekommunikatsiya vositalaridan foydalanish.

Telekommunikatsiya aloqasi (sinxron, asinxron) qisqa vaqtda ilfor pedagogik texnologiyalarning tarqalishiga, o'quvchining umumiy rivojlanishiga yordam beradi.

6. Axborot almashuvining yangi texnologiyasi – bu real vaqt rejimida stereoskopik tasavvur tizimi, ya'ni «Virtual haqiqiylik» hisoblanadi.

Bunday tizimdan stereometriya, chizmachilik, muhandislik grafikasi kabi fanlarni o'qitishda foydalanish mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik saviyasini yanada oshiradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim tizimida joriy etilish tahlili ularning:

- * o'quvchiga dunyoviy bilimlarni egallashiga;
- * o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasini chuqur o'zlashtirilishiga;
- * o'quv faoliyatini tashkil etishning xilma-xilligi hisobiga o'quvchining mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga;
- * interfaol muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o'qitish jarayonini individuallashtirish va differentsiyalashtirishga;
- * sun'iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan foydalanish orqali o'quvchida o'quv materiallarini o'zlashtirish strategiyasini egallashiga;
- * Jamiyatning har bir a'zosi axborot madaniyatini shakllanishiga;
- * o'rganilayotgan jarayon va hodisalarni kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, o'quvchilarda qiziqishni va faollikni oshirish vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi.

Yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini bir-biridan ajratish mumkin emas, chunki yangi pedagogik texnologiyalarning keng joriy etilishi taʼlim paradigmasini oʻzgartiradi va faqat zamonaviy axborot texnologiyalarigina yangi pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlaridan samarali foydalanishni taʼminlay oladi.

Anʼanaviy va zamonaviy axborot texnologiyalari muhitidagi pedagogik taʼlimlarning asosiy koʻrsatkichlarini taqqoslash axborotlashtirilgan pedagogik taʼlimning istiqbolli ekanligini yaqqol namoyon qildi. Buni quyidagi fikrlar asosida ham tasdiqlash mumkin. Anʼanaviy didaktika oʻz oldiga oʻquvchining aqliy rivojlanishini tezlatishni, oʻquv faoliyatining malaka va koʻnikmalarini, bilimni oʻzlashtirish jarayonini optimallashtirishni taʼminlovchi metodik usullarni yaratishga qaratilgan oʻqitish nazariyasini shakllantirishni maqsad qilib qoʻyadi.

Axborotlashgan pedagogik taʼlimda didaktika va axborot jamiyat aʼzosining intellektual rivojlanishini jadallashtirish zarurligini aniqlovchi taʼlim maqsadlariga erishishni taʼminlashga yoʻnaltirilgan pedagogik taʼsirga ega boʻlib, shaxsning intellektual salohiyatini namoyish etishni va rivojlanishini oʻzining asosiy maqsadi etib qoʻyadi. Bu maqsadga, zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlarini joriy etish orqaligina toʻliq erishish mumkin.

Anʼanaviy didaktika, oʻquvchining mustaqil ishlashiga jiddiy eʼtibor bermagani holda, asosan koʻrgazmali-tushuntiruv usulini taklif qiladi. Oʻquvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish va mustaqil faoliyatni faollashtirishning ayrim koʻrinishlari muammoli oʻqitish, oʻqitishni algoritmlash nazariyalarida oʻz aksini topgan. Bu nazariyalarga oid foyalarning samarali joriy qilinishi bilim saviyasining, undagi sifatning ortishiga, oʻquv materiallarini oʻzlashtirishga sarflanadigan vaqtning tejalishiga, aqliy faoliyatlarning shakllanishiga olib keladi. Ammo bularning barchasi, oʻqitishning metodlari va vositalaridan qanday foydalanishga va uning darajasiga boʻliq.

Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida didaktika, zamonaviy axborot texnologiyalaridan faol foydalanish orqali bilimlarni mustaqil oʻzlashtirishga yoʻnaltirilgan oʻquv faoliyatining keng jabhali turlarini taklif etadi. Bu muhitdagi didaktika fikrlashni, shaxsning salohiyati va imkoniyatlarini, estetik tarbiyani, unda axborot madaniyatini tarbiyalashni, bilimlarni mustaqil oʻzlashtirishni, oʻquv-axborot faoliyati boʻyicha malaka va koʻnikmalarini rivojlantiradi.

YUqoridagilarni inobatga olib, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning pedagogik maqsadlari bayon etiladi. Axborot texnologiyalari oʻquvchi shaxsining:

- fikrlashini;
- estetik tarbiyasini;
- kommunikativ qobiliyatini;
- optimal qaror qabul qilish malakasini;
- axborot madaniyatining rivojlanishini taʼminlaydi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari, oʻquv-tarbiya jarayonlarining barcha bosqichlarini jadallashtiradi. Bunda axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida, taʼlim jarayonining sifati va samaradorligi ortishi, oʻquvchilarning bilish faoliyatini faollashuvini, fanlararo aloqalarning chuqurlashuvini kuzatish mumkin.

Didaktika nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadigan, axborot texnologiyalarini joriy etish orqali samaradorlikga erishiladigan metodik maqsadlarga:

- o'qitish jarayonini individuallashtirish va differentsiyalash;
- teskari aloqa bilan o'quv faoliyati nazoratini olib borish;
- o'z-o'zini nazorat qilish;
- o'quv materialini o'zlashtirish jarayonida mashq qilish va mustaqil tayyorgarlikni tashkil etish;
- o'quv vaqtini tejash;
- o'quv axborotlarni kompyuter orqali vizuallashtirish;
- o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish;
- kompyuterda laboratoriya mashqulotlarini bajarish;
- axborot ma'lumotlar bazasini yaratish va undan foydalanish;
- o'qishga qiziqishni orttirish;
- o'quvchini o'quv materialini o'zlashtirish strategiyasi bilan qurollantirish;
- fikrlashni rivojlantirish;
- optimal qaror qabul qilish malakasini shakllantirish;
- o'quvchida axborot madaniyatini shakllantirish kabilarni kiritish mumkin.

Zamonaviy axborot texnologiyalari mikro va makro dunyodagi, murakkab qurilmalar va biologik tizimlardagi hodisa va jarayonlarni kompyuter grafikasi va modellashtirishidan foydalanish asosida o'rgatish, juda katta yoki juda kichik tezlikda sodir bo'ladigan fizik, kimyoviy va biologik jarayonlarni qulay vaqt o'lchamida taqdim etish kabi yangi didaktik masalalarni echishga yordam beradi.

Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalari muhitining shakllanishi:

- fan sohalarni axborotlashtirish;
- o'quv faoliyatini intellektuallashtirish;
- integratsiya jarayonlarini tezlashtirish;
- ta'lim tizimi infrastrukturasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga olib keladi.

Ta'limni axborotlashtirish – ta'lim-tarbiyaning pedagogik-psixologik maqsadlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni, ta'lim sohasida ularni yaratish amaliyoti va metodologiyasi bilan ta'minlashni nazarda tutadi.

Bu jarayon, birinchidan, ilmiy-pedagogik ma'lumotlar bazasidan foydalanish asosida ta'lim tizimini boshqarish mexanizmini takomillashtirishni, ikkinchidan, zamonaviy axborot jamiyatida, shaxsni rivojlantirish maqsadlarida ta'lim-tarbiyaning tashkiliy shakllari, metodlari, mazmunini tanlash va metodologiyasini takomillashtirishni, uchinchidan, o'quvchini intellektual salohiyatini rivojlantirishga, unda mustaqil bilim olish malakasini shakllantirishga yo'naltirilgan o'qitishning metodik tizimini yaratishni va nihoyat to'rtinchidan, o'quvchilar bilimni nazorat qilish va baholashning diagnostik metodlarini, xususan kompyuter testlarini yaratishni va ulardan foydalanishni maqsad qiladi.

Taʼlimni axborotlashtirish va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish jarayoni oʻqitishdagi tashkiliy shakllar va metodlarning oʻzgarishigagina emas, balki undagi yangi metodlarning shakllanishiga ham olib keladi.

Fanlar sohasining axborotlashuvi, oʻquv faoliyatining takomillashuvi, zamonaviy axborot texnologiyalari asosida bilish jarayonining integratsiyalashuviga, fanlar sohasining kengayishiga, chuqurlashuviga va ularning integratsiyasiga sabab boʻladi. Bu esa, oʻz navbatida, oʻquv materiallari mazmunini tanlash mezonlariga oʻzgartirishlar kiritishni taqozo qiladi.

SHunday qilib, taʼlimni axborotlashtirish jarayonining rivojlanishi, oʻquv materiallarining mazmuni va hajmini oʻzgarishiga, oʻquv predmetlari (kurslari) dasturlarini qayta ishlab chiqishga, alohida mavzular yoki predmetlarning integrallashuviga sababchi boʻladi. Bu esa, oʻquv fanlarining mazmuni va strukturasi oʻzgarishiga, binobarin, taʼlimning mazmuni va strukturasi oʻzgarishiga olib keladi.

Bu jarayonga parallel ravishda, oʻquvchilar bilim saviyasi muammosiga, kompyuter texnologiyalari asosidagi innovatsion yondashuvni joriy etish lozim boʻladi.

Taʼlim mazmuni va tarkibi, nazorat va oʻqitishning tashkiliy shakllari, metodlari haqidagi tasavvurlarning oʻzgarishi oʻqitish jarayonida xususiy metodikani ham takomillashtirishni taqozo etadi.

Taʼlim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini imkoniyatlaridan foydalanish va shu tufayli oʻquv faoliyatining kengayishi, oʻqitish vositalari va darsliklarga boʻlgan didaktik talablarning sifatii oʻzgarishlariga olib keladi.

YUqorida taʼkidlangan holatlar taʼlim-tarbiya nazariyasi tarkibiy qismlarining oʻzgarishiga, yaʼni pedagogika fani paradigmasining oʻzgarishiga olib keladi.

Dunyoda masofaviy oʻqitishning, ochiq taʼlim tizimining muhim boʻlini sifatida keng qoʻllanilishi, shuningdek, taʼlimda zamonaviy axborot texnologiyalari va INTERNETdan foydalanish uning sifatini yuqori koʻtarish omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, oliy pedagogik taʼlim tizimida turli fanlarni, jumladan fizikani oʻqitishda keng joriy etilmoqda.

Oʻquv jarayonida yangi axborot texnologiyalarni qoʻllash, pedagogik metodlarning samaradorligini oshirishga, pedagoglarning mehnat faoliyatini oʻzgarishiga, ularning ish uslublarini takomillashishiga, pedagogik tizimlarning strukturaviy oʻzgarishiga olib keladi. Bu esa pedagogik jarayonlarni boshqarishni tashkil etish va boshqarishda oʻziga xos vazifalarni qoʻyadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etish:

- oʻqituvchilar oʻrtasida mehnat taqsimotini;
- masofaviy oʻquv kurslari va elektron adabiyotlarning yaratuvchisi boʻlgan jamoaga pedagoglar, kompyuter dasturchilari va mutaxassislarining birlashuvini;

- pedagogik jarayonning tashkil qilinishini takomillashtirish va o'qituvchi faoliyati samaradorligining monitoringini olib borishni taqozo etadi.

YAngi texnologiyalar asosidagi pedagogik faoliyat:

- taʼlimdagi texnologik asoslarning tez rivojlanishi bilan boʻliq byalgan yangi kurslarni yaratishdek murakkab jarayonlarning engillashuvini;
- o'quv kurslarini yaratishda maxsus malakalarning shakllanishini;
- masofaviy kurslarning ochiqligi tufayli ularning sifatiga bo'lgan talablarning va o'quv materiallari sifatini nazorat qilishga oid ehtiyojlarning qondirilishini;
- o'quv jarayonida o'quvchi faoliyatining ustivor mavqe tutishini, o'quv jarayoni salmoʻining o'qituvchidan o'quvchiga ko'chishini;
- yangi kommunikation texnologiyalardan foydalanish asosida, o'qituvchining har bir o'quvchi bilan teskari aloqasini vujudga kelishini taʼminlaydi.

Bugungi kunda pedagogik taʼlim samaradorligini oshirish bilan bevosita aloqador bo'lgan bir qator hozirgacha echimini topmagan muammolar mavjud. Bu muammolar taʼlim sohasini axborotlashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalari sohasida pedagog kadrlar tayyorlash, pedagoglarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish malakasining etarli emasligi bilan boʻliq bo'lmoqda.

Bu muammolarning muhim qirralaridan biri sifatida pedagoglarning o'zlaridagi taʼlimni axborotlashtirishga bo'lgan munosabatlarini ko'rsatish mumkin. SHu narsani taʼkidlash joizki, axborotlashtirish sharoitida pedagogning roli yanada oshadi.

Hozirda taʼlim muassasalari zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari asosida jihozlanmoqda. Bu, o'z navbatida pedagoglarning o'z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. O'quv jarayonida yangi texnologiyalarni joriy etilishi, o'qituvchini texnik vositalar tomonidan siqib chiqishga emas, balki uning vazifalari, rolini o'zgartiradi, o'qituvchilik faoliyatining murakkablashuviga olib keladi.

Endi o'qituvchidan:

- o'quv kurslari dizayneri – o'quv kurslarini yaratuvchi;
- fasiliteytor – o'qitish metodlari bo'yicha maslahatchi;
- tbyutor-o'quv kurslarini interfaol taqdim etish bo'yicha mutaxassis;
- invigilator – taʼlim natijalarini nazorat qilish usullari bo'yicha mutaxassis bo'lish talab etiladi.

Zamonaviy texnologiyalar, masofaviy oliy pedagogik fizik taʼlimni yangicha tashkil qilinishiga asos yaratadi. Bunday taʼlimda fizik-pedagoglar, kompyuter dasturchilari va mutaxassislari yordamida YAngi o'qitish kurslarini yaratishlari lozim bo'ladi. Masofaviy o'qitish kurslarini yaratishda dastlab:

- kurslarning maqsadi;
- maqsadga erishish yo'llari;
- o'quv materiallarini taqdim etish usullari;
- o'qitish metodlari;

- o'quv topshiriqlarining turlari;
- muhokamalar uchun savollar;
- munozara va bahslarni tashkil etish yo'llari;
- o'zaro aloqa usullari va kommunikatsiya singari omillarni aniqlash lozim.

Bularning barchasi kurslarni yaratuvchi - o'qituvchilar (kurslar dizayneri) va texnologiyalar bo'yicha mutaxassislar hamkorligida amalga oshiriladi.

O'quvchi va o'qituvchining o'rtasidagi kommunikatsiya turiga ko'ra masofaviy o'qitish metodlarining quyidagi asosiy guruhlariga ajratish mumkin:

- mustaqil o'qish usullari;
- «birga-bir» pedagogik usuli;
- «birga-ko'pchilik» o'qitish;
- kommunikatsiya asosida «ko'pchilik-ko'pchilik» ta'limi.

Masofaviy mustaqil o'qish uchun multimedia yondashuvi xarakterlidir. Mustaqil o'qishni tashkil etishda an'naviy ta'lim va zamonaviy axborot texnologiyalarga asoslangan ta'limning imkoniyatlarini 1-jadvalda keltirilgan taqqoslash orqali ko'rish mumkin.

| Анъанавий таълим | Zamonaviy texnologiyalarga asoslangan ta'lim |
|-------------------------|---|
| Nashr materiallari | Nashr materiallari |
| | Audio va video materiallar |
| | Kompyuter o'rgatuvchi dasturlar |
| | Elektron jurnallar |
| | Interfaol ma'lumotlar bazasi |
| | Kompyuter tarmoqlari orqali uzatiladigan boshqa o'quv materiallar |

1.2.1-rasm. An'naviy ta'lim va zamonaviy axborot texnologiyalarga asoslangan ta'limning imkoniyatlari

«Birga-bir» masofaviy o'qitish metodi – bu individuallashtirilgan o'qitish va o'qish metodidir. Bunda o'quv muloqotlarining o'quvchi-o'qituvchi, o'quvchi-o'quvchi shakllari qatnashadi. Bu metod uchun telefon, ovozli pochta, elektron pochta kabi texnologiyalarni qo'llash talab etiladi. Kompyuter tarmoqlariga asoslangan «teleustozlik»ni rivojlantirish muhim yo'nalish hisoblanadi.

«Birga – ko'pchilik» o'qitish usuli uchun an'naviy va zamonaviy texnologiyalar asosidagi ta'lim afzalliklarini 2-jadvalda keltirilgan taqqoslash orqali ko'rish mumkin.

| Dars turi | Ko'rgazmali vositalar |
|----------------|--------------------------------|
| <i>ma'ruza</i> | Audio va video lektsiyalar |
| <i>ma'ruza</i> | Radio va TV lektsiyalar |
| <i>ma'ruza</i> | Elektsiya-elektron lektsiyalar |

1.2.1-rasm. Anʼanaviy va zamonaviy texnologiyalarga asoslangan taʼlim afzalliklari

Zamonaviy texnologiyalar oʻqitish usullarini ham takomillashtirishga ishonch hosil qilish mumkin. Zamonaviy texnologiyalar taʼlim jarayoniga yangi terminlarni olib kiradi. Keyingi vaqtlarda elektron lektsiyalar, yaʼni **elektsiya** tushunchasi paydo boʻldi. Elektsiya - bu kompyuter tarmoqlari orqali tarqatiluvchi lektsiya materiallaridir. Elektsiya nafaqat maʼruza matnlaridan balki oʻquvchini bahslarga tayyorlashga xizmat qiluvchi oʻquv materiallari, maqolalar, ularning qisqartmalaridan tashkil topishi mumkin.

Kommunikatsiya asosida «koʻpchilik-koʻpchilik» taʼlimi – oʻquv jarayonidagi barcha ishtirokchilarning oʻzaro faolligi bilan xarakterlanadi. Jamoaviy yaquv bahslari va konferentsiyalarning oʻtkazilishi bu metodning rivojlanishiga olib keladi. Oʻquv muloqotlari oʻquvchilar-oʻqituvchi va oʻquvchilar-oʻquvchilar shaklida boʻladi. Bu metod sinxron va asinxron audio, audiografik, video va kompyuter konferentsiyalari texnologiyalariga asoslanadi.

Kompyuter kommunikatsiya texnologiyalari bahslar, modellashtirish, aqliy hujum, Delphi metodi, forumlar, loyihalash guruhlari kabi oʻqitish metodlaridan faol foydalanishga imkon beradi.

Pedagogik taʼlim muhitining samarasi, yangi texnologiyalar negizida oʻqitish mazmunining rivojlanishiga, taʼlim muhiti interfaolligi rivojiga, taʼlim jarayonida oʻquvchining faolligini rivojlantirishga, moslashuvchan oʻquv jarayonining tashkil etilishiga boʻliqdir.

Zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari oliy pedagogik taʼlim mazmuni rivojlanishini taʼminlaydi. Bu texnologiyalar:

- taʼlim mazmunini tashkillashtirish;
- taʼlim mazmuniga oid elementlarni boʻlash;
- axborotlarning turli koʻrinishlaridan foydalanish;
- kurslarni darslar(mavzular) majmuasi koʻrinishida taqdim etish;
- darsni virtual harakatlar tizimi sifatida yaratish;
- oʻquv materiallarini oʻzlashtirishning ketma-ketligini taʼminlash;
- oʻquv materiallari mazmunini oʻquvchiga moslashtirish;
- turli sohalarda taʼlim mazmunini rivojlantirish (kurs yaratuvchilar, oʻqituvchilar, metodistlar,oʻquvchilar);
- oʻquv maqsadlariga erishishda, professional bahslardan foydalanish uchun vosita boʻlib xizmat qiladi.

Zamonaviy texnologiyalar taʼlim beruvchilarning ham, taʼlim oluvchilarning ham faolligini oshiradi. Bunday faollik muhiti, oʻzaro ijodiy hamkorlikning sifatini va samaradorligini yangi bosqichga koʻtaradi.

Jadal surʼatlar bilan rivojlanayotgan texnologiyalar oʻquv jarayonining tez takomillashishini va yangi texnologik muhitga moslashishini taqozo etadi. Moslashuvchan oʻquv jarayonini tashkil etish zamonaviy axborot texnologiyalari asosida, oʻquv materiallarini yaratishning turli:

- kompyuter oʻrgatuvchi tizimlarining arxitekturasini yaratish;

- amaliy o'rgatuvchi kompyuter dasturlarini shakllantirish;
- o'qitishning turli usullari va vositalari orqali aniq o'quv jarayonini shakllantirish bosqichlarida moslanuvchanlik prinsipining bo'lishini talab etadi. Bunday prinsip asosida tayyorlangan o'quv materiallari o'quvchining bilim darajasi, malakasi, psixologik xususiyatlari, o'quv guruhlarining o'ziga xos xususiyatlari va o'qitishning ijtimoiy-madaniy jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi.

O'quv jarayoni uchun texnologiyalarni tanlashda quyidagilarga muhim omillar sifatida e'tibor qaratish lozimligini alohida ta'kidlash mumkin:

- o'quv jarayonida yangi texnologiyaning o'zi emas, balkim undan foydalanib ta'limning maqsadlariga erishishni ta'minlashning muhimligi;
- eng zamonaviy va qimmat texnologiyalar bilan bir qatorda, arzon va a'yanaviy texnologiyalar ham samara berishi mumkinligi;
- o'qish natijalari telekommunikatsiya yoki axborot texnologiyalarining turiga qarab emas, balki kurslarni yaratish va uzatish sifatiga bo'liqligi;
- texnologiyalarni tanlashda o'quvchining shaxsiy xususiyatlariga, alohida olingan fan sohasining o'ziga xos tomonlariga, o'quv mashfultlari, topshiriqlari va mashqlarining mazmuniga e'tibor qaratish lozimligi;
- texnologiyalarni tanlashda, eng samarali yo'llardan biri - bu multimediasimon yondashuvdir.

Ta'lim mazmunini va uning sifatini yaxshilash masalalari ustuvor yo'nalish sifatida qaralayotgan paytda ta'limda yangi axborot texnologiyalarini joriy etish, uning rivojlanishiga va samaradorligining ortishiga zamin yaratadi.

Kompyuterlarning ta'limda keng qo'llanilishi natijasida «ta'limning yangi axborot texnologiyalari» termini paydo bo'ldi. Umuman aytganda, har qanday pedagogik texnologiya - bu axborot texnologiyasidir, chunki ta'limda texnologik jarayonning asosini axborot va uning harakati (o'zgarishi) tashkil etadi. Bizning fikrimizcha, kompyuterdan foydalanishga asoslangan ta'lim texnologiyalari uchun «kompyuter texnologiyalari» termini munosibdir.

Kompyuter texnologiyalari dasturiy o'qitish foydasini rivojlantiradi, kompyuter va telekommunikatsiyalarning katta imkoniyatlari bilan bo'liq o'qitishning mutlaqo yangi texnologik variantlarini ochib beradi. Kompyuter (yangi axborot) texnologiyalari – kompyuter asosida o'quvchiga axborotlarni tayyorlash va etkazish jarayonidir. Kompyuter texnologiyalari quyidagi variantlarda namoyon bo'lishi mumkin:

I - «kirib boruvchi» texnologiyalar (alohida mavzular, bo'limlar bo'yicha ma'lum bir didaktik masalalar uchun kompyuter o'qitishni qo'llash).

II - asosiy, qo'llanayotgan aniq texnologiyadan o'ta muhim qismini aniqlovchi.

III - monotexnologiyalar (ta'lim, o'quv faoliyatni boshqarish, diagnostika va monitoring kompyuterlarni qo'llashga asoslanadi).

Hozirda zamonaviy axborot texnologiyalari ta'limda faol qo'llanilmoqda. SHu bilan bir qatorda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishda qator qiyinchiliklar mavjud. Bu quyidagilar bilan izohlanadi:

- taʼlimni axborotlashtirishga pedagogik jamoalarning etarli tayyor emasligi;
- kompyuter oʻrgatuvchi dasturlarning imkoniyatlari haqida tasavvurlarning ozligi, ularni qoʻllash boʻyicha metodik ishlanmalarning kamligi;
- kompyuter texnologiyalari vositalarining qimmatligi;
- taʼlimda axborot texnologiyalari boʻyicha mutaxassislarning etishmasligi.

Taʼlim muassasida zamonaviy axborot texnologiyalari muhitini tashkil etish bosqichlari psixologik axborot muhitini yaratishdan boshlanadi. Texnologik va ilmiy natijalar, yaratilgan dasturiy mahsulotlar asosida zamonaviy vositalar va metodlardan foydalanishga ehtiyoj shakllantiriladi. Bunda har bir taʼlim muassasida individual va maslahat mashfulotlar asosida pedagoglarni mustaqil va kompyuter taʼlimi tizimini tashkil etish kerak. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan modellar orasidan quyidagilarni alohida taʼkidlash mumkin:

- yangi oʻquv materiallarini tushuntirishda kompyuterning namoyish imkoniyatlaridan foydalanuvchi darslar;
- INTERNET oʻrgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturiy mahsulotlar asosida tashkil etilgan darslar;
- pedagoglarning darslarga metodik tayyorlanishi, qoʻshimcha axborotlarni izlash va tizimlashtirishi, didaktik materiallarni tayyorlashi;
- kompyuter texnologiyalaridan oʻquv jarayonini tashkil etish va boshqarishda foydalanish.

Har bir modelga oʻziga xos texnik jihozlangan kompyuter ishchi oʻrinlari toʻgʻri keladi. Kompyuterlarni oʻquv jarayoniga joriy etish boʻyicha bizning tajribamizdan kelib chiqib, predmet kompyuter sinflari va kompyuterlar bilan jihozlangan oʻquv sinflarini tashkil etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Oʻqitishni kompyuterlashtirish tor maʼnoda kompyuterlarni oʻqitish vositasi sifatida qoʻllash boʻlsa, keng maʼnoda oʻquv jarayonida kompyuterlardan koʻpmaqsadli foydalanish nazarda tutiladi. Oʻqitishni kompyuterlashtirishning asosiy maqsadi oʻsib borayotgan avlodni axborot jamiyatiga tayyorlash va axborot texnologiyalari vositalarini joriy etish orqali taʼlim samaradorligini oshirishdan iboratdir.

Oʻqitish jarayonini kompyuterlashtirish (axborotlashtirish)da ikki yoʻnalishni ajratish mumkin: kompyuterni oʻquv faoliyatining vositasi sifatida qoʻllashning barcha usullarini oʻzlashtirish hamda kompyuterdan oʻrganish obʼekti sifatida foydalanish. Kompyuterni texnik xarakteristikalarining va dasturiy taʼminotining takomillashib borishi, didaktik imkoniyatlarining kengayishi uning oʻqitish vositasi sifatida yangi xossalarini namoyon qilmoqda.

Kompyuterlar yordamida oʻqitishning rivojlanish tarixida ikki tizim: aʼbnaviy va intellektual oʻqitishni ajratish mumkin. Intellektual oʻqitish tizimining asosiy xususiyati shundaki, u oʻquv masalalarini hal etishda barcha bosqichlar xususiyatlarini inobatga olgan holda oʻquv faoliyatini boshqarishni nazarda tutadi. Intellektual oʻqitish tizimida individuallashtirilgan oʻqitish oʻquvchining dinamik modeli asosida amalga oshiriladi. Bunday tizimlar oʻquvchi

va kompyuter o'rtasida boshqaruv vazifalarini taqsimlash imkoniyatini berish orqali o'quvchining o'quv faoliyatini shakllanib borishida barqarorlik, muntazamlikni beradi, ya'ni mustaqil o'qishga o'rgatishga optimal tarzda o'tish amalga oshiriladi.

Kompyuterlar vositasida o'qitish o'quv jarayonining barcha jabhalariga samarali ta'sir ko'rsatadi. Kompyuterlarning o'qitish mazmuniga ta'siri o'quvchilarga ko'plab imkoniyatlarni ochib beradi. Bu kompyuterlarning o'quv materiallarini namoyish etish imkoniyatlarining yuqoriligi, sun'iy intellekt foyalarini joriy etilishi, o'quvchilarga ko'plab axborotlarni etkazish vositasi ekanligi bilan bo'liqdir. Ikkinchi tomondan kompyuterlar o'qitish mazmuniga har xil e'vristik vositalarni kiritadi. Kompyuterlarning muhim ahamiyatli tomonlaridan biri ularning integratsiyalashgan o'quv fanlarini yaratishga real imkoniyat vujudga keltirishidir.

O'quv maqsadlarida kompyuterlardan foydalanish o'quvchilarning faoliyatini o'zgartiradi. Endi o'quvchi pedagogga murojaat etmasdan turib zarur axborotlarni mustaqil izlab topishga, ya'ni mustaqil tadqiqot olib borish imkoniyatiga ega bo'ladi. Kompyuter o'qitishning ikkinchi yo'nalishi kompyuterlarni o'rganish ob'ekti sifatida qo'llashdir.

Kompyuterlarning o'quv jarayonida o'qitish vositasida qo'llanilishi didaktika va pedagogik psixologiyaning ko'pgina nazariy asoslarini qayta ko'rishni taqozo etadi. Jumladan ekspert tizimlar o'quvchini istalgan murakkablikdagi masalani echishda to'g'ri echimga olib kelish, gipermatn o'rgatuvchi tizimlar esa o'quvchiga o'quv materiallarini o'zlashtirish ketma-ketligini tanlash imkoniyatlarini beradi.

Ta'kidlash joizki, kompyuterlar vositasida o'qitish o'qitishdagi barcha muammolarning o'z-o'zicha echilishga olib kelmaydi. Kompyuter pedagogni o'quv jarayonidan siqib chiqara olmaydi, ya'ni yangi axborot texnologiyalari an'naviy texnologiyalarning o'rnini to'liq qoplay olmaydi. Matn muharririda tayyorlangan didaktik materiallar o'quv jarayoni imkoniyatlarini kengaytiradi, ya'ni bu jarayonni samarali va xilma-xil qiladi va o'qishga qiziqishni oshiradi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilar auditoriyasining tayyorgarlik darajasiga qarab didaktik materiallarni shakllantirish mumkin. YAxshi ulguruvchi o'quvchilar uchun murakkabroq topshiriqlar tayyorlash yoki murakkab testlar berish imkoniyatlari yaratiladi. Didaktik materiallarni tayyorlashda pedagog o'zining kasbiy vazifalarini bajarishga qaratilgan materiallar tayyorlayotganini esda tutishi lozim.

Endi jadval muharririda didaktik materiallar tayyorlashni ko'rib chiqaylik. Misol uchun «O'zgarmas tok qonunlari» bo'limidan didaktik materiallar tayyorlash jarayonini kuzataylik. Murakkab elektr zanjiri berilgan bo'lsin. Unda zanjirning bir qismi uchun Om qonunidan foydalanib tok kuchi va kuchlanishning reostat qarshiligiga bo'liqligini o'rganish talab etilmoqda. Masalani echish davomida jadvaldagi ustunlarni to'ldirish, formulalarni yozish va ko'chirish, diagrammalar tuzish usullari o'rganiladi.

O'qituvchi, dastlab, o'quvchilarni elektron jadval shablonlarini to'ldirish uchun tayyorlaydi, o'quvchilar laboratoriya ishlari natijalarini jadvallarga

kiritadilar, bu maълumotlarni qayta ishlaydilar. Aslida oddiy ko'ringan mazkur hisoblashlar orqali o'quvchilar kompyuter texnologiyalaridan qulay vosita sifatida foydalanishga o'rganadilar. Va nihoyat elektron jadvallarning ajoyib xususiyati - ko'rsatkichlarning o'zgarishida formulalarning hisoblashlarni mos amalga oshirishini taъminlash mumkin. Bu esa uncha murakkab bo'lmagan fizik jarayonlarni modellashtirish imkoniyatini beradi.

Elektron taъdimotlardan darsga namoyish va ko'rgazmali material sifatida foydalanish pedagogga katta yordam beradi. O'quv materialining elektron taъdimotda animatsiyalar shaklida berilishi o'tilayotgan mavzuni tushunishni engillashtiradi va ko'rgazmalilikni oshiradi. Namoyish slaydlarini o'quvchilarga tarqatma material sifatida ham tarqatish mumkin.

Slaydlarga nisbatan o'quvchilar o'zlarining fikrlarini yozadi va bu orqali ular axborotlar bilan ishlashning quyidagi malakalariga эga bo'ladilar:

- grafik axborotlarni matn shakliga keltirish yoki teskarisi;
- muhokama etilayotgan mavzu bo'yicha xulosalar va savollarni shakllantirish;
- o'zining o'quv-bilish faoliyatini rejalashtirish.

Bunday metodika yaъituvchiga yangi axborotlarni ko'paytirib borish, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini o'zgarishi bilan maълum bir mavzuga mo'ljallangan slaydlarni takomillashtirib borish imkoniyatini beradi.

Metodik jihatdan o'qituvchi va o'quvchining o'zaro muloqoti ikki turdagi taъsirdan iborat bo'ladi. Birinchi tur taъsiri: o'qitishning maълum bosqichida o'quvchiga shu bosqichdagi masalani tushunishga yordam beruvchi yo'naltiruvchi savollar. Ikkinchisi: masalani aniqlashtiruvchi fikrlar va harakatlar usulini ko'rsatish.

Savollar va ko'rsatmalar soni nazariy va amaliy materiallarning o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishi hamda malakaning shakllanishiga bo'liq ravishda beriladi.